

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI
MUQIMIY NOMIDADI QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**BOSHLANG‘ICH TA’LIM METODIKASI
KAFEDRASI**

**5141600 – “Boshlang‘ich ta’lim va sport-tarbiyaviy ish”
ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr darajasini olish
uchun IV «A» guruh talabasi**

MEHMONOVA MANZURAXONNING

**“UCHINCHI SINF O‘QISH DARSLIGIDAGI
“KUZ MANZARASI VA MEHNAT” BO‘LIMINI O‘TISHDA REJA
USTIDA ISHLASHGA O‘RGATISH”
MAVZUSIDAGI**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Ilmiy rahbar: Z.Isaqov,
dotsent**

Q O ‘ Q O N – 2 0 1 3

Muqimiy nomidagi Qo‘qon davlat pedagogika instituti 5141600 – “Boshlang‘ich ta‘lim va sport-tarbiyaviy ish” ta‘lim yo‘nalishi IV “A” guruh talabasi Mehmonova Manzuraxonning “3-sinf o‘qish darsligidagi “Kuz manzarasi va mehnat” bo‘limini o‘tishda reja ustida ishlashga o‘rgatish” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi

H A Q I D A

Reja tuzish va u asosida matnni qayta hikoyalash o‘quvchilarning og‘zaki nutqini o‘stiruvchi eng maqbul ish turlaridan sanaladi. Buni to‘g‘ri anglab yetgan muallif reja tuzish va u orqali turli xil matnlarni qayta bayon etish borasida o‘zining amaliy ishlarini metodist olimlarimizning nazariy ko‘rsatmalari asosida qiziqarli tarzda yoritib olgan. Bitiruv malakaviy ish mavzusiga mos reja tuzilib, shu asosda ish bayon etilgan. Ishning bayon qismida fikrlar ketma-ketligiga rioya qilingan, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati ham maqsadga muvofiq tarzda keltirilib, ishda adabiyotlardan maqsadli foydalanilgan, ko‘chirmalar ishning dalili sifatida o‘rinli berilgan.

Ishning umumiy tavsifi – kirish qismida mavzuning dolzarbligi, mavzuning o‘rganilganlik darajasi, ishning maqsad va vazifalari, ishning nazariy, amaliy ahamiyati, ishning sinalishi to‘la ochilgan.

Ishning birinchi bobida boshlang‘ich sinflarda badiiy adabiyot o‘qitishning maqsad va vazifalari belgilanadi, badiiy matn ustida ishlashning o‘ziga xos xususiyatlari tavsiflanadi hamda boshlang‘ich ta‘limda reja tuzish ustida ishlash yo‘llari xususida so‘z boradi, fikrni dalillash uchun keng nazariy, amaliy ko‘chirmalar keltiriladi.

Ikkinchi bobda “Kuz manzarasi va mehnat” bo‘limidagi she‘riy asarlar, epik tur janrlari: hikoya, ertak va rivoyat hamda ilmiy-ommabop asarlar ustida ishlashda o‘quvchilarni reja tuzishga o‘rgatish metodikasi yuzasidan amaliy tavsiyalar beriladi.

Xulosa qismida “Kuz manzarasi va mehnat” bo‘limidagi asarlar matni ustida ishlash orqali o‘quvchilarning ma‘naviy-axloqiy fazilatlarini o‘stirish yuzasidan amaliy tavsiyalari beriladi.

Ishda keltirilgan fikrlar, ko‘chirmalar o‘z dalilini yetarlicha topa olgan. Amaliy ishlarni yoritishga keng joy ajratilgan. Biroq, ishni diqqat bilan kuzatganimizda, ayrim o‘rinlarda imloviy, uslubiy va tinish belgilariga oid kamchiliklar uchraydi.

Ishdagi ayrim yetishmovchiliklar malakaviy ishning mazmuniga katta ta‘sir qilmasligini, u oliy maktab BMI talablariga mosligini hisobga olib, himoyaga tavsiya etaman

Ish rahbari:

Z.Isaqov,
BTM kafedراسи dotsenti.
20-aprel 2013-yil.

Muqimiy nomidagi Qo‘qon davlat pedagogika instituti 5141600 –
“Boshlang‘ich ta‘lim va sport-tarbiyaviy ish” ta‘lim yo‘nalishi IV “A” guruh
talabasi Mehmonova Manzuraxonning “3-sinf o‘qish darsligidagi
“Kuz manzarasi va mehnat” bo‘limini o‘tishda reja ustida ishlashga o‘rgatish”
mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

TASHQI TAQRIZ

Talaba bitiruv malakaviy ish mavzusiga mos reja tuzib, shu reja asosida ishni keng va atroflicha bayon eta olgan. Ish mazmunini bayon etishda fikrlar ketma-ketligiga qat‘iy rioya qilingan. Har bir bo‘lim yuzasidan to‘g‘ri xulosalar chiqarilgan va umumiy xulosalar berilgan. Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati ham maqsadga muvofiq tarzda keltirilib, ishda adabiyotlardan o‘rinli foydalanilib, ko‘chirmalar manbai talablar darajasida rasmiylashtirilgan.

Ishning umumiy tavsifi qismida mavzuning dolzarbligi, mavzuning o‘rganilganlik darajasi, ishning maqsad va vazifalari, ishning nazariy, amaliy ahamiyati, ishning sinalishi yuzasidan keltirilgan ma‘lumotlar qisqa va mazmunli yoritilgan, asoli dalillangan.

Ishning birinchi bobida boshlang‘ich sinf DTS asosida o‘qish darslarini tashkillashning maqsad va vazifalari, badiiy matn ustida ishlashning o‘ziga xos xususiyatlari, reja tuzish hamda u asosida hikoyalashning nazariy asoslari haqida so‘z boradi. Fikrni dalillash uchun keng nazariy va amaliy izohlar keltiriladi.

Ikkinchi bobda boshlang‘ich sinf 3- sinf o‘qish darsligidagi “Kuz manzarasi va mehnat” bo‘limidagi asarlarni o‘rgatish metodikasi, nasriy asarlarni o‘qitishning usullari, bo‘limidagi ilmiy-ommabop asarlarni o‘rgatishning o‘ziga xos tomonlari, she‘riy asarlar ustida ishlash metodikasi to‘rt faslda ochiladi. Ishning bu qismida talaba o‘zining bitiruv malakaviy amaliyoti davridagi amaliy tajribalarini keng yoritishga ahamiyat bergan.

Xulosa qismida “Kuz manzarasi va mehnat” bo‘limidagi asarlar matni ustida ishlashda o‘quvchilarning ma‘naviy-axloqiy qarashlarini boyitish yuzasidan olib borilgan ishlar tasnif etilgan.

Ishda keltirilgan fikrlar, ko‘chirmalar o‘z dalilini topa olgan. Nazariy fikrlar me‘yorida keltirilib, amaliy ishlarni yoritishga keng joy ajratilgan. Biroq, ishda ayrim kamchiliklar ko‘zga tashlandi:

1. Birinchi bobning ayrim o‘rinlari, bizningcha, andek cho‘zilib ketgan.
2. Ishning ayrim betlarida imloviy, uslubiy va tinish belgilariga oid nuqsonlar uchraydi. BMIdagi bu yetishmovchiliklar ishning mazmuniga katta ta‘sir qilmasligini hisobga olib, ishni himoyaga tavsiya etaman

Taqrizchi:

D.Zohidova,
O‘zbek tili va adabiyoti kafedراسи dotsenti.
25-may 2013- yil.

Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmashligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Islom Karimov.

“3-SINF O‘QISH DARSLIGIDAGI “KUZ MANZARASI VA MEHNAT” BO‘LIMINI O‘TISHDA REJA USTIDA ISHLASHGA O‘RGATISH

M U N D A R I J A

Kirish. Ishning umumiy tavsifi	3
I. BOB. Boshlang‘ich sinflarda sinfda o‘qish darslarini tashkil etish.	
1-§. Boshlang‘ich sinflarda badiiy adabiyot o‘qitishning maqsad va vazifalari	6
2-§. Badiiy matn ustida ishlashning o‘ziga xos xususiyatlari	10
3-§. Boshlang‘ich ta’limda reja tuzish ustida ishlash yo‘llari	15
II. BOB. 3- sinf o‘qish darsligidagi “Kuz manzarasi va mehnat” bo‘limi	
asarlarni o‘qitish orqali reja ustida ishlash metodikasi	21
1-§. “Kuz manzarasi va mehnat” bo‘limidagi she’riy asarlar ustida ishlashda o‘quvchilarni reja tuzishga o‘rgatish metodikasi	22
2-§. “Kuz manzarasi va mehnat” bo‘limidagi hikoyalarni o‘qitish orqali reja asosida hikoyalash o‘quvchi nutqini o‘stirishning faol usulidir	37
3-§. “Kuz manzarasi va mehnat” bo‘limidagi ertak va rivoyatlarni o‘qitishda reja tuzish va shu asosida hikoyalashdan foydalanish	45
4-§. “Kuz manzarasi va mehnat” bo‘limidagi ilmiy-ommabop asarlarni o‘qitishda reja ustida ishlash vositalari	54
Xulosa. “Kuz manzarasi va mehnat” bo‘limidagi asarlar ustida ishlashning ma’naviy-axloqiy ahamiyati	62
Foydalanilgan adabiyotlar	65
Ilovalar	67

KIRISH. ISHNING UMUMIY TAVSIFI

Mavzuning dolzarbligi. Milliy istiqloлга erishibmizki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov yosh avlod tarbiyasi masalasini e‘tibordagi birinchi darajali vazifa sifatida belgilab berdilar. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, “Davlat ta’lim standartlari”ning hayotga joriy etilishi fikrimizning yaqqol dalilidir. Maktabda badiiy adabiyot o‘qitishning maqsadi keng ma’noda savodli kishilar tayyorlab chiqarish, ularning kelajakda faol ijodiy faoliyat ko‘rsatishlari uchun zarur bo‘lgan og‘zaki va yozma nutq malakalari bilan qurollantirishdir. O‘qish darslarini zamon ruhi bilan hamnafas olib borish O‘zbekiston Respublikasining istiqloлга erishuvi bilan o‘zbek tiliga e‘tiborning kuchayishi ilm-fan sohasida ham katta tadqiqotlarni amalga oshirishni talab etmoqda. Bu davrda milliy tilning nozik qirralarini bilish, undan nutq jarayonida unumli foydalanish madaniylik ko‘rinishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Uchinchi sinf o‘qish darsligidagi asarlarni o‘qitishda reja tuzishga o‘rgatish va bu ishlarni uyushtirish yo‘llari haqida juda ko‘plab ishlar bajarilgan hamda talay tavsiyalar berilgan. Biz ham bu sohaga murojaat etib, qilingan ishlarni keng va atroflicha tahlil qilishga, bu sohada yechimini kutayotgan o‘rganilishi zarur masalalarga e‘tiborni qaratishga harakat qildik. Ona tilimizning rang-barang xususiyatlarini o‘rganar ekanmiz uning boy qirralarini hushyorlik bilan anglash va ehtiyotkorlik bilan ishlatishni o‘quvchilarga singdirish kun tartibidigi eng dolzarb masaladir.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Munozaraga tashlanayotgan masala – 3- sinf o‘qish darsligidagi “Kuz manzarasi va mehnat” bo‘limi asarlarni o‘qitish orqali reja ustida ishlash uslubiyoti yuzasidan tadqiq etilgan nazariy ma’lumotlarni yig‘ib, tahlilga kiritdik, ilg‘or metodist olimlarimizning ishlari¹ bilan atroflicha

¹ Qosimova K. Boшланғич синфларда она тили ўқитиш методикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985.; Ашрапова Т., Одилов И. Она тили методикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984.; Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Она тили о‘қитиш методикаси. – Toshkent: Noshir, 2009. – 352 b. Юсупов М. Ўқиш ва ўзув дарслари самарадорлигини ошириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990. Зуннунов А., Ҳотамов Н., Эсонов Ж., Иброҳимов А. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992.

tanishdik. Bu ma'lumotlarni amaliyotimizda amaliy sinovdan o'tkazib, olingan amaliy natijalarni tavsif etdik.

Ishning maqsad va vazifalari.

Malakaviy ishimiz uchun quyidagi maqsad va vazifalarni belgiladik:

1. Boshlang'ich sinflarda badiiy adabiyot o'qitishning maqsad va vazifalarini belgilab olish.
2. Badiiy matn ustida ishlashning o'ziga xos xususiyatlarini tahlilga tortish.
3. Boshlang'ich ta'limda reja tuzish ustida ishlash yo'llari yuzasidan nazariy ma'lumotlarni tavsif etish.
4. 3- sinf o'qish darsligidagi "Kuz manzarasi va mehnat" bo'limi asarlarni o'qitish orqali reja ustida ishlash metodikasini taklif qilish.
5. "Kuz manzarasi va mehnat" bo'limidagi she'riy asarlar ustida ishlashda o'quvchilarni reja tuzishga o'rgatish metodikasi yuzasidan amaliy ishlarni tahlilga kiritish.
6. "Kuz manzarasi va mehnat" bo'limidagi hikoyalarni o'qitish orqali reja asosida hikoyalash o'quvchi nutqini o'stirishning faol usullarini taqdim etish.
7. "Kuz manzarasi va mehnat" bo'limidagi ertak va rivoyatlarni o'qitishda reja tuzish va shu asosida hikoyalashdan foydalanish uslubiyotini ishlab chiqish.
8. "Kuz manzarasi va mehnat" bo'limidagi ilmiy-ommabop asarlarni o'qitishda reja ustida ishlash vositalarini belgilab olish.
9. "Kuz manzarasi va mehnat" bo'limidagi asarlar ustida ishlash orqali o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy olamini boyitish haqida amaliy takliflar ishlab chiqish.

Ishning ilmiy yangiligi. "Kuz manzarasi va mehnat" (3- sinf) bo'limidagi mavzularni o'tishda o'quvchilarni reja tuzish va reja ustida ishlash yuzasidan nazariy fikrlarni tahlil etib, shaxsiy amaliy mulohazalar ishlab chiqib,

tajribalarimiz asosida boshlang'ich ta'limda o'qitish ishlarini rivojlantirishga hissa qo'shish maqsadida faoliyatimizni bayon etishga harakat qildik.

Ishning nazariy va amaliy ahamiyati. 3- sinf o'qish darsligidagi "Kuz manzarasi va mehnat" bo'limi asarlarni o'qitish orqali reja ustida ishlash metodikasi yuzasidan ma'lumotlar keng va atroflicha o'rta tashlandi, bu ma'lumotlardan boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi, boshlang'ich ta'limning zamonaviy pedagogik texnologiyalari va talaba tanlov fanlari mashg'ulotlarida nazariy material sifatida foydalanish mumkin. Ishdan amaliy jihatdan o'rta maktabning boshlang'ich ta'limida va pedagogika institutlarining tegishli bo'limlari talabalari bitiruv malakaviy ishi, kurs ishi loyihalari uchun material sifatida hamda talabalar malakaviy amaliyoti davomida amaliy foydalanishlari mumkin.

Ishning sinalishi va natijalarining ommalashtirilishi. Ish amaliy jihatdan boshlang'ich sinf o'qish darslarida muallifning bitiruv malakaviy amaliyoti davrida amaliy sinovdan o'tkazilgan, olingan natijalarni ommalashtirish o'qitishdagi muammolarni ijobiy yechishga yordam beradi, deb ishonch bildiramiz.

Ishning tuzilish va umumiy hajmi. Tadqiqot ishning umumiy tavsifi, ikki asosiy bob, umumiy xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi – 64 sahifa.

I. BOB.

1-§. Boshlang'ich sinflarda badiiy adabiyot o'qitishning maqsad va vazifalari

Yurtboshimiz: "Yana bir dolzarb vazifa – o'sib kelayotgan avlodga, uning ma'naviy tarbiyasiga nihoyatda katta javobgarlik hissi bilan yondashish masalasi. Nega deganda, yoshlar xalq ma'naviyatining munosib egalaridir. Shuning uchun har bir o'g'il-qizimiz dastlabki qadamlaridan boshlab madaniy boyliklarimizdan bahramand bo'lishi kerak. Iste'dodli yoshlarimizning, yigit-qizlarimizning o'z qiziqqan sohalarida yetuk insonlar bo'lib yetishishi uchun tegishli shart-sharoitlar hali to'la yaratilgani yo'q.

Agarki biz o'zimizning ma'naviy burchimizni oqlashni istasak, ularga otalarcha g'amxo'rlik qilishimiz kerak. Ana shu maqsadda biz ularning mamlakatimiz va chet ellardagi nufuzli ilmiy markazlarda ta'lim olishi uchun mablag'lar ajratdik. Bu ishlar uchun hech narsani, shu jumladan, valyutani ham ayamaymiz"² deganlarida ta'lim sohasi uchun naqadar yuksak mehrni tuyamiz.

«Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» mamlakatimizda ta'lim tizimining barcha bosqichlarida ham shaklan, ham mazmunan o'zgarishlarni keng miqiyosda amalga oshirishni pedagog-murabbiylar oldiga dolzarb, hayotiy muhim vazifa qilib qo'ydi. Ushbu ustuvor masalalarni hal etishda yangi pedagogik texnologiyalar va innovatsion usullarni ta'lim-tarbiya jarayoniga qo'llash ijobiy natijalarga olib kelishi shubhaciz. Hozirgi axborot texnologiyalari taraqqiy topgan, o'sib kelayotgan yosh avlod ilm-fan, madaniyat, sport, siyosat, iqtisodiyot yangiliklaridan juda tez fursatlarda bahramand bo'layotgan davrda ularni fanlarga qiziqtirishning barcha samarali usullaridan, jumladan, innovatsion usullardan ham keng foydalanmoq lozim bo'ladi. O'qish fani mashg'ulotlarda ta'limning noan'anaviy usullarini qo'llash: bahs-munozara, noan'anaviy dars, musobaqa-dars, dars-muammo, ssenariyli o'qitish darsi, dars-konferensiya, sayohat-dars, nazm darsi, suhbat-dars, tahlil-dars kabilar o'quvchilarning fanni chuqur o'rganishlarida muhim o'rin tutadi.

² Karimov I.A. Yusak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B.80.

Innovatsion usullar qo'llanilgan darslar maroqli, qiziqarli va mazmunli bo'ladi, o'quvchilar bunday darslarda zerikishmaydi; ularda darsda faol qatnashishiga ishtiyoq kuchayadi, chunki ular bunday darslarda o'zini har tomonlama ko'rsatishga imkoniyat borligini yaxshi anglaydilar.

Boshlang'ich sinflarning o'qish darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Negaki uning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta'limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshqa predmetlar ta'limini o'qish ta'limisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

O'quvchi matnni to'g'ri, tez, tushunib o'qish, mazmunini o'zlashtirish bilan ilk bor o'qish darslarida yuzlashadi. O'qish darslari orqali o'quvchilarning Davlat ta'lim standarti (DTS) talablari bo'yicha o'zlashtirishlari ko'zda tutilgan o'quv-biluv ko'nikma-malakalari hamda bilimlarni egallashlariga yo'l ochiladi. Aynan o'qish ta'limida insonning, avvalo, o'zligini, qolaversa olamni anglashga bo'lgan intilishlariga turtki beriladi.

Shu maqsadda «O'qish kitobi» darsliklariga ona tabiat, atrofimizni o'rab turgan olam, Vatanimiz tarixi va bugungi qiyofasi, kattalar va bolalar hayoti, mehnatsevarlik, istiqlool va milliy-ma'naviy qadriyatlar, xalqlar do'stligi va tinchlik kabi turli mavzular bo'yicha atroflicha tushunchalar berishga mo'ljallangan badiiy, axloqiy-ta'limiy, ilmiy-ommabop asarlar kiritiladi.

O'qish darslari savod o'rgatish davrida o'quvchilarni bo'g'in, so'z va gaplar bilan tanishtirish va ularni o'qish, rasmlar asosida hikoya qilish tarzida uyushtirilsa, o'qish texnikasi egallangandan so'ng o'qish muayyan mavzular bo'yicha tanlangan badiiy, ilmiy-ommabop matnlar yuzasidan olib boriladi.

Boshlang'ich sinf «O'qish kitobi» darsliklariga kiritilgan muayyan mavzular o'quvchilarni badiiy adabiyotning sehrli olamiga olib kirishi, dunyoqarashlarini milliy istiqlool mafkurasi asosida to'g'ri shakllantirishga qaratilishi bilan belgilanadi. Shunga ko'ra, o'qish darslarining yetakchi xususiyati o'quvchilarning savodxonligini ta'minlash bilan birga, o'quvchilarni milliy mafkura asosida yuksak axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratiladi.

Boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida o'rganiladigan asarlarning mavzu doirasi ancha keng bo'lib, ular ona tabiat, yil fasllari, xalq og'zaki ijodi, mehnatga muhabbat, asosiy bayram sanalari, milliy istiqlol va ma'naviyat kabi umumiy mavzular doirasida birlashtirilgan.

O'qish darslari uchun tanlangan mavzular o'quvchilarga kundalik hayot, mustaqillikni mustahkamlash va insoniy munosabatlar bo'yicha ham bilim va tarbiya berishni ko'zda tutadi. Bular ichida istiqlol, vatan, ma'naviyat va tabiat haqidagi mavzular alohida ajralib turadi. Ulardan ko'zlangan maqsad o'zlikni anglash, istiqlol, vatan va tabiat bilan bog'liq tuyg'ularni uyg'otishdir.

Vatanparvarlik, atrofimizdagi olam, mehnatsevarlik kabi mavzular o'qish darsliklaridagi keng qamrovli mavzulardan bo'lib, 2-sinf «O'qish kitobi»dagi «*Ona yurtim – oltin beshigim*» bo'limiga kiritilgan «*O'zbekistonim*» (H.Imonberdiyev), «*Istiqlol*» (J.Jabborov), «*O'lka*» (E.Vohidov), «*Yur tog'larga*» (U.Nosir), 3-sinfda «*Ona bitta, Vatan yagona*» bo'limidagi «*Vatan haqida she'r*» (A.Avloniy), «*O'zbekim*» (E.Vohidov), «*Vatan mo'tabardir*» (X. Davron), «*Bilib qo'yki, seni Vatan kutadi*» (T.Malik), 4-sinfda «*O'zbekiston – Vatanim manim*» bo'limidagi «*Serquyosh o'lka*» (Z.Diyor), «*Iqboli buyuksan*» (A.Oripov), «*Toshkentnoma*» (M.SHayxzoda), «*Xarita*» (N.Norqobil) kabi asarlar misolida atroflicha tahlilga tortiladi.

Ijtimoiy-tarixiy mazmundagi mavzular Vatanimiz o'tmishi, xalqimiz hayoti, mardonavor kurashi, ulug' siymolar tomonidan amalga oshirilgan ishlar, tarixiy sanalar to'g'risida muayyan tasavvur beradi. Beruniy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur va boshqa ajdodlarimiz haqidagi matnlar shular jumlasidandir. Bu xildagi asarlar o'quvchilarni faqat o'tmishimiz bilan tanishtirib qolmasdan, Vatan oldidagi farzandlik burchi va mas'uliyatini teran anglashga ham yordam beradi. Ularda Vatanga muhabbat tuyg'usi shu tariqa shakllanadi. Vatanimiz o'tmishi haqida hikoya qilingan asarlar bilan tanishish va ularni tahlil qilish jarayonida o'quvchilar o'tmish bilan bugungi kunni taqqoslash imkoniga ega bo'ladilar, jamiyat taraqqiyoti xususida qisqacha bo'lsada, tushuncha hosil qiladilar. Bu

borada ayniqsa milliy istiqlol bilan bog'liq H.Imonberdiyevning «*O'zbekistonim*», J. Jabborovning «*Istiqlol*» (2-sinf), A. Rustamovning «*Bayroq nima?*», A.Obidjonning «*O'ktam avlod*» (3-sinf), S.Barnoyevning «*Mangulikka tatigulik kun*», E.Malikovning «*Assalom, Neksiya!*» (4-sinf mavzusidagi asarlari yaqindan yordam beradi.

Tabiatga oid mavzular yordamida o'quvchilar tabiatdagi o'zgarishlar, yil fasllarining almashinuvi, hayvonot olamiga doir bilimlarni egallaydilar. Bunday mavzudagi asarlar o'quvchilarni kuzatuvchanlikka, tabiatni sevishga, unga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lishga o'rgatadi.

Tabiat tasviriga oid matnlar ustida ishlashda tabiat bag'riga sayohat uyushtirilib, bolalar kuzatuvchanlikka o'rgatilsa, vatanparvarlikka oid asarlar tahlili vatanning dongdor kishilari bilan uchrashuvlar yoki mavzuga daxldor kinofilmlar namoyishi vositasida amalga oshirilsa, dars samaradorligi yanada ortadi. Umuman, «O'qish kitobi» darsliklaridagi barcha mavzular o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish bilan birga, ularning lug'atini boyitishga, og'zaki va yozma nutqini to'g'ri shakllantirish va nutq madaniyatini o'stirishga ham qaratiladi.

Amaldagi «O'qish kitobi» darsliklarida materiallarning sinfdan sinfga o'tgan sari mavzu jihatidan ham, mazmun jihatidan ham kengaya borishi hisobga olingan. Masalan, 1-sinfda o'rgatiladigan «*Ajdodlarimiz – faxrimiz*», «*Ilm – aql chirog'i*», «*Zumrad bahor*», «*Kumush qish*» kabi mavzular 2-4-sinflarda ham davom ettirilgan. Bu esa o'quvchilarning oldingi bilimlarini to'ldiradi va boyitadi.

Uzluksiz ta'limning boshqa bosqichlaridan farqli o'laroq, boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida o'quvchilarning o'qish malakalarini shakllantirish, asar matni ustida ishlash ta'limning **didaktik maqsadi** hisoblanadi. U turli mavzudagi matnlar ustida ishlash orqali ma'naviy-ahloqiy, adabiy-estetik tarbiya bilan chambarchas bog'lab olib boriladi.

Darsliklardagi har bir mavzu uchun tanlangan matnlarning janriy rang-barangligiga, poetik mukammalligiga, o'quvchilarning bilim darajasi va yosh xususiyatlariga mos kelishiga aohida e'tibor qaratiladi.

O'quvchilar darsliklar yordamida o'zlashtiriladigan bilim, ko'nikma va malakalarining kelajak hayotda zarur bo'lishini tushunib yetishishlariga erishish o'qituvchilar oldidagi muhim vazifalardandir.

Boshlang'ich ta'lim bo'yicha DTS va «Ona tili» o'quv dasturida o'qish ta'limi oldiga qo'yilgan talablarni amalga oshirish sinfda o'qishni to'g'ri tashkil qilish, o'qitish bosqichlari, tamoyillari va metodlari, birinchi navbatda, ilg'or pedagogik texnologiyalardan o'rinli foydalanishga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Umuman olganda, o'qish darslari oldiga qo'yiladigan **didaktik vazifalar** quyidagilardan iborat:

1. O'quvchilarda yaxshi o'qish sifatlari: to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qishlarini shakllantirish.
2. O'quvchilarni kitobdan foydalanishga, undan kerakli bilimlarni olishga o'rgatish, kitobga muhabbat uyg'otish; ularni oddiy kitobxondan chuqur mulohaza yurituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarish.
3. O'quvchilarning atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish va boyitish hamda ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish.
4. O'quvchilarni axloqiy, estetik jihatdan yetuk va mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash.
5. O'quvchilarning bog'lanishli nutqi va adabiy-estetik tafakkurini o'stirish.
6. O'quvchilarning xayolot olamini boyitish.
7. Elementar adabiy tasavvurlarini shakllantirish³.

Shuni unutmaslik kerakki, har bir ta'limiy vazifani bajarishning aniq va ilmiy metodik usullari mavjud bo'lib, ular zamonaviy o'qitish usullari bilan boyitib borilmoqda. Bu vazifalar boshqalari bilan o'zaro bog'liq holda va sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari jarayonida hal qilinadi.

³ Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2009. – B.67-70.

2-§. Badiiy matn ustida ishlashning o‘ziga xos xususiyatlari

Bugungi kunda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatimiz kelajagini belgilab berishi tayin. 1999 yilda ta’lim tizimiga birinchi marotaba Davlat ta’lim standarti tushunchasi kiritilgan edi. Mazkur standartlarni joriy etishdan maqsad, o‘qituvchilar va o‘quvchilar oldiga real vazifa – maqsadni belgilash, ularning umumiy o‘rta ta’lim olish bosqichi yakunidagi ta’lim tayyorgarligiga ma’lum talabalarni qo‘yishdan iborat edi. Dastlabki joriy etilgan Davlat ta’lim standartlari yuzaga kelgan bugungi sharoitdagi dastlabki tajribalar bo‘lib, tabiiyki, amalda keng sinab ko‘rilgach, o‘ziga xos muammolar paydo bo‘ldi va ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida amaldagi Davlat ta’lim standartlarini takomillashtirish, o‘quv dasturlari modernizatsiya qilish zaruriyati paydo bo‘ldi.

O‘qish darslarining ahamiyati shundaki, ta’limning dastlabki kunlaridan boshlab o‘quvchilar tabiat, jamiyat va mehnati haqidagi bilimlarni o‘zlashtirib boradilar. Ana shu bilimlarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirishlariga erishish uchun quyidagilarga e’tibor berish taqozo etiladi:

1.Darslik asosida o‘rganilgan bilimlar bilan kuzatish va tajriba ma’lumotlarini bog‘lab borish. O‘rganiladigan manba xususiyatlariga qarab o‘qishni kuzatish, tajriba ishlari va hayotiy dalillar bilan mustahkamlash. Dastlab kuzatib, tajribalar o‘tkazib keyin ko‘rganlari haqida o‘qisa, o‘quvchilar bilimi puxta bo‘ladi. Keyingi safar esa oldin o‘qib, o‘qiganlarini amalda ko‘rishlari mumkin. Ayrim hollarda esa o‘qitib, mazmuni tushuntirilsa, yetarli bo‘lar. Darslarni rejalashtirishda ana shular hisobga olinadi.

Masalan, 3-sinf «O‘qish kitobi»dagi Tolib Yo‘ldoshning «Kuz kelganda» sarlavhali she’rini o‘qishdan oldin kuzning tabiati, daraxtlarning bargi, ob-havodagi o‘zgarishlar, yomg‘irning yog‘ishi bolalar bilan birgalikda kuzatilsa, she’rning g‘oyasi o‘quvchilarga tushunarli bo‘ladi.

Abdusodiq Irisovning «Qo‘shterak» sarlavhali hikoyasi o‘qilgandan keyin o‘qituvchi bolalarga murojaat qilib, «Qani o‘quvchilar, biz ham daraxt ko‘chatlari

ekkanmizmi?», deyishi mumkin. Bu bilan o'quvchilarni tabiatga mehri oshib, o'lkamizning chamanzorga burkashga harakat qiladilar.

«Bobur va kabutar» sarlavhali rivoyatning mazmuni esa og'zaki tushuntiriladi. Chunki hikoyada aytilgan fikrlarni kuzatish yoki tajribalar o'tkazish qiyin. Bu o'rinda o'qituvchining mohirlik bilan tushunturishi taqozo etiladi.

2.O'qishni hayot bilan bog'lash orqali o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini hayotga tatbiq etishga o'rgatib borish.

3.O'qish darslarida o'quvchilar fikri va lug'atini boyitib borishga e'tibor berish.

O'qishni o'rgatishga oid olib boriladigan barcha ishlar o'quvchilar nutqi va fikrini o'stirishga qaratilgan bo'lib, bunga turli ish usullaridan mohirona foydalanish orqali erishiladi.

O'qish darslarida asar matni ustida ishlashga alohida e'tibor beriladi. Asar matni ustidagi ishlar uni tahlil qilish, aniqlash, o'quvchilar lug'atini boyitish va ayrim mantiqiy mashqlar bajarishga, taqqoslash, o'xshatish va umumlashtirish malakalarini oshirishga yordam beradi.

Ma'lumki, o'qish darslarining tarbiyaviy ahamiyati beqiyosdir. Ayniqsa badiiy asar va xalq og'zaki ijodi namunalarining tarbiyaviy ahamiyati katta ekanligi ma'lum. Shu bois maktablarda bilimlarni o'zlashtirish bilan tarbiyaviy ta'sir o'tkazish ishlari o'zaro bog'liq holda olib boriladi. Xo'sh, o'qish darslarida bilimlarni singdirish bilan tarbiyaviy ishlar qanday amalga oshiriladi?

Boshlang'ich sinf «O'qish kitobi»dagi manbalar o'quvchilarga tabiat, jamiyat, kishilar mehnati va boshqa muhim masalalar yuzasidan bilim berishga moslashtirib tanlangan. Ana shu darslik manbalari asosida tabiatdagi va jamiyatdagi voqea-hodisalarni tushuntirishning o'zi tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, o'quvchilarni uyushtirish, bilimlarni o'zlashtirishga qiziqtirish va mustaqil bilim olishga odatlantirish, kuzatuvchanlik qobiliyatlarini o'stirish ishlarining hammasi tarbiyaviy ishlardir. Ana shu ishlarni amalga oshirishda o'qish darslari muhim imkoniyatlarga ega.

Darslarda o'quvchilarni har tomonlama o'stirish vazifalari bajara borib, ularni vatanparvarlik, baynalmilallik ruhida tarbiyalash, axloqiy sifatlarini shakllantirish masalalariga ham e'tibor beriladi.

Vatanparvarlik tarbiyasi ta'limning dastlabki bosqichlaridanoq boshlanadi. Savod o'rgatish davrida Vatan, kishilar mehnati va tabiatdagi voqea-hodisalar haqidagi she'r va xikoyalarni eshitish orqali o'quvchilar Vatan va uning boyliklarini asrash, uni e'zozlash xaqida dastlabki tushunchalarga ega bo'ladilar. Sinf dan sinfga o'tgan sayin turli she'r va hikoyalarni o'qish orqali o'quvchilarda Vatan tushunchasi shakllanadi. Har bir kishining tug'ilib o'sgan, voyaga yetgan va yashab mehnat qilayotgan joyi uning Vatani ekanligi, keng ma'noda esa bepoyon diyorumiz, uning xalqlari, barcha boyliklari Vatan tushunchasi tarkibiga kirishi o'rgatiladi.

«O'qish kitobi»dagi hikoya va she'rlarni o'rganib borish orqali Vatanimizning o'tmishi va hozirgi kuni haqidagi bilimlari ortib boradi.

O'qish darslari davomida o'qituvchi o'quvchilarni Vatan haqida, uning boyliklari haqida ko'proq bilishga qiziqtirib borishi keraq Vatanimizni sevish bilan birga uning boyliklarini orttirib borish, buning uchun esa har bir o'quvchi umumfoydali mehnatga o'z ulushini qo'shishi, jamoat ishlariga ongli va qiziqish bilan ishtirok etishi zarurligi o'rgatib boriladi.

Darslarda turli millat bolalari va ularning do'stligi haqida yozilgan hikoyalarni o'qish jarayonida baynalmilallik g'oyalari singdirib boriladi.

Tabiatdagi turli o'zgarishlar, fazoni o'rganishga oid ishlar haqidagi xikoyalarni o'qish orqali o'quvchilar dunyoqarashi shakllanib boradi.

Yoshlarni har tomonlama yetuk kishilar qilib voyaga yetkazishda nafosat tarbiyasi muhim o'rin tutadi. Nafosat tarbiyasi badiiy asarlarni o'qish orqali amalga oshiriladi. O'quvchilarga badiiy asarni o'qiganda uning g'oyasini sezish, tushunish o'rgatib boriladi.

«O'qish kitobi» manbalari orqali tabiat va mehnatni tor ma'noda emas, balki jamiyatimiz kishilarining qahramonona mehnati va keng ma'nodagi tabiat haqidagi

bilimlar bilan qurollantirish nazarda tutilgan. Shuningdek, kishilar mehnati o'tmishda qanday bo'lganligi va hozir qanday ekanligi taqqoslanadi. Bulardan tashqari yil fasllariga oid manbalarni o'rganishga ham alohida e'tibor beriladi. Tabiatshunoslikka oid manbalarni o'rganish ham jamiyatga oid bilimlarni o'rganish ham kuzatish, ekskursiya va tajribalar asosida amalga oshiriladi. Bularsiz o'qishni hayot bilan bog'lab bo'lmaydi.

«O'qish kitobi» darsliklari uchun manba tanlashda uch tomonlama mulohaza qilingan: asar mazmuni, uning yozilish tili va hajmi hisobga olingan. Darslik manbalari asta-sekin murakkablashtirib boriladi. Buning natijasida o'quvchilar fikri ham asta-sekin kengayib boradi. O'rganiladigan asar tili, unda yangi so'z va iboralarining bo'lishi o'quvchilar va lug'atini boyitib borishga yordam beradi. O'rganiladigan asarlarning turlarini xillashtirib borish orqali undagi tasviriy vositalarni ham tushunishga undaymiz. Darslik manbalari tartibiga ko'ra birinchi sinfda o'rganilganlar undan keyingi sinflarda kengaytirib boriladi. O'quvchilar boshlang'ich sinflarda badiiy asar namunalari tanishib, bu haqda qisman tushunchaga ega bo'lsalar yuqori sinfga o'tganlarida asosan badiiy asar ustida ishlashga e'tibor beriladi. O'qish darslaridagi ish turlari asta-sekin takomillashib boradi. Umuman, o'quvchilarning tasavvur tushunchalarini kengaytirish va bilimlarini oshirishda o'qish darslarining ahamiyati kattadir. Shuningdek, yozuv, matematika, tabiatshunoslik, ashula va boshqa darslarda yaxshi natijalarga erishish uchun ham o'qish darslari asos bo'lib hisoblanadi. Chunki o'quvchilar o'qish va fikrlashni, mulohaza qilishni bilmay turib biror sohadagi bilimlarni o'zlashtirilmaydilar. O'quvchilarning har tomonlama bilimlari ortib borishida o'qish darslarining ahamiyati beqiyosdir.

O'qish orqali inson borliq, jamiyat haqida bilimga ega bo'ladi, o'qishni bilmagan odamning ko'zi ojiz kishidan farqi yo'q. Boshlang'ich sinfda o'qish faoliyati barcha predmet darslarida amalga oshiriladi. Lekin o'qishga o'rgatishning yo'l-yo'riqlarini o'qish metodikasi ishlab chiqadi. O'qish metodikasining kichik

yoshdagi o'quvchilarning umumiy rivojlanishi, psixologiyasi, xususiy metodika sohasidagi yutuqlar bog'liq fanlar yutug'i asosida shakllanib boradi.

O'qish darslarida o'quvchilar tabiat, jamiyat, unda yashovchi kishilar hayoti, ularning o'tmishi, hozirgi yashash tarzi, mashhur kishilari haqida, vatanning tabiati; ob-havosi, boyliklari, hayvonot dunyosi va boshqalar haqidagi bilimlarni egalaydilar. Bilim olish jarayonida ularga nisbatan munosabat uyg'onadi. Bilim berish bilan o'quvchi shaxsi tarbiyalanib boradi.

Sinfda o'qish darslari quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. O'qish malakasini takomillashtirish. O'quvchilarda yaxshi o'qish sifatlari: to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish malakalarini shakllantirish.

2. Bolalarda kitobga muhabbat uyg'otish, kitobdan foydalanishga, undan kerakli bilimni olishga, ya'ni kitob bilan ishlashni biladigan, chuqur fikrlovchi, sermulohaza kitobxonlarni yetishtirish.

3. O'quvchilarni tevarak-atrof, borliq haqidagi bilimlarini kengaytirish, dunyoqarash elementlarini shakllantirish.

4. O'quvchilar axloqiy-estetik va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash.

5. O'quvchilarni nutqini va tafakkurini o'stirish.

6. Adabiy tasavvur elementlarini shakllantirish.

Bu vazifalarni bajarishning aniq yo'li bo'lishi zarur.

3-§. Boshlang'ich ta'limda reja tuzish ustida ishlash yo'llari

Reja – biror ishni tartib bilan va o'z vaqtida bajarish uchun oldindan belgilab olingan aniq yoki taxminiy mo'ljal⁴. Reja bayon qilinadigan matnining asosiy mazmunini aks ettirishi va voqea-hodisalarni izchil bayon etishga yordam berishi kerak. Reja eng muhim va ikkinchi darajali fikr hamda hodisalarni, ular o'rtasidagi munosabatlarni aniqlashda o'quvchilarga katta yordam beradi.

Asar rejasini tuzish. Reja matn mazmunini ongli va chuqur tushunishga, asosiy fikrni ajratishda, voqealarning izchilligini belgilashda, matn qismlarining

⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3-жилд. – Тошкент: ЎМЭ, 2006. – Б.369.

o‘zaro bog‘lanishini tushunishda o‘quvchilarga yordam beradi. Reja ustida ishlash o‘quvchilar nutqi va tafakkurini o‘stiradi. Ular matnni mazmunan tugallangan qismlarga bo‘lishga va har bir qismning asosini topishga o‘rganadilar.

Reja tuzishga tayyorgarlik ishlari savod o‘rgatish davridayoq boshlanadi. Tayyorgarlik mashqining eng oddiy turi berilgan sarlavhalardan kichik matn mazmuniga mosini topib qo‘yish hisoblanadi. Bunday mashqqa o‘rgatishda o‘qituvchi sarlavha asosiy fikrni ifodalashini ta’kidlaydi, bolalar topgan sarlavhani tahlil qilib, u yoki bu sarlavha nima uchun mos yoki mos emasligini tushuntiradi. Reja tuzishga tayyorgarlik ishining 2-turi o‘qituvchi rahbarligida tanlab o‘qish hisoblanadi, bolalar matndan o‘qituvchi bergan savolga javob bo‘ladigan o‘rinni topib o‘qiydilar.

Reja tuzish osondan qiyinga tamoyili asosida asta murakkablashtirilib muayyan izchillikda o‘tkazib boriladi. 1-sinf o‘quvchilari o‘qilgan kichik matnga o‘qituvchi rahbarligida so‘roq gap tarzida sarlavha tanlash, 2-sinfda kichik maqolaning rejasini o‘qituvchi rahbarligida so‘roq yoki darak gap tarzida tuzish, 3-sinfda o‘qilgan matn rejasini jamoa bo‘lib tuzish, 4-sinfda mustaqil reja tuzish olishlari kerak.

Rejaning eng oddiy shakli rasmi reja hisoblanadi. Buning uchun avval bolalar kitobda berilgan rasmlardan matn qismiga mosini tanlashga va uni nomlashga o‘rgatiladi; keyin matn qismiga tayyor rasm berilmaydi, uni bolalarning o‘zlari so‘z bilan tasvirlaydilar; hikoya o‘qiladi va qismlari bo‘yicha tahlil qilinadi, so‘ng o‘quvchilar matnning 1-qismini o‘qiydilar, o‘qituvchi ulardan qanday rasm chizishni so‘raydi, ish mana shu tarzda davom etadi.

O‘quvchilar rasmi reja tuzishdan logik reja tuzishga o‘tadilar, logik reja tuzish quyidagi izchillikda o‘rgatiladi:

1. O‘qituvchi qismlarga bo‘lingan matn tanlab reja tuzadi va matn rejasini o‘rnini almashtirib, sarlavha tarzida xattaxtaning chap tomoniga yozib qo‘yadi. O‘quvchilar matnning 1-qismini o‘qiydilar, shu qism mazmuniga mos sarlavhani

topadilar, uni o'qituvchi xattaxtaning o'ng tomoniga yozadi, shunday qilib, xattaxtada o'qilgan matnning rejasi hosil bo'ladi.

2. Matn qismlarini tahlil qilish jarayonida o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida har bir qismdagi asosiy qismni aniqlaydilar va unga sarlavha topadilar, o'qituvchi sarlavhalarni reja tarzida xattaxtaga yozib boradi.

3. Qismlarga bo'linmagan matn tanlanadi, sarlavhalar matn rejasi tartibida xattaxtaga yoziladi. O'quvchilarga berilgan sarlavhalardan foydalanib, matnni qismlarga bo'lish topshiriladi. Ular matnni o'qiydilar, 1-sarlavhaga tegishli qismni ajratadilar, keyingi qism ham shunday belgilanadi.

Qismlarga bo'linmagan matn tanlanadi, sarlavhalar aralash tarzda xattaxtaga yoziladi. O'quvchilarga yuqori qismlarga bo'lish topshiriladi. O'quvchilar matnni o'qib nisbiy tugallangan qismni ajratadilar va unga mos sarlavhani xattaxtadan tanlaydilar. Ish shu tarzda davom ettirilib, matn rejasi tuziladi.

Reja tuzish uchun so'roq va darak gaplardan va ayrim hollarda atov gaplardan foydalanish mumkin, faqat har bir rejada bir turdagi gaplar ishlatilishi zarur. Shunday qilib, o'quvchilarda matn ustida ishlash ko'nikmasini shakllantirishda ular diqqati ishning mazmuni va bajarish yo'llariga qaratiladi.

O'quvchilar reja tuzishga kirishishdan oldin matnning umumiy mazmuni bilan tanishish uchun uni to'la-to'kis o'qib chiqadilar, so'ngra matn qismlarga yoki boblarga bo'lib o'qiladi. O'quvchilar har qaysi qismga sarlavha qo'yadilar. Qismlarning sarlavhasi savol yoki atov gap xarakteridagi qisqa jumalardan iborat bo'lishi lozim. Reja tuzishdagi ishning bunday dastlabki usullari ko'pincha I va IV sinflarda qo'llaniladi.

Reja tuzishda o'quvchilar matnning har bir qismi nima bilan tugashini aniqlashlari qiyin. Buning uchun o'qituvchi matnning qismlarini avval o'zi aniqlaydi va matnga sarlavha qo'yishni, keyinroq esa matndagi har qaysi qismning tugagan joyini aniqlashni o'quvchilarga topshiradi. Bunda "Qism qayerda tugaydi", "Bu qismda nima haqida gapiriladi?", "Nima uchun bu qism shu yerda tugaydi?" degan savollar beriladi. Reja tuzish uchun tanlangan matn tugallangan,

qismlarga oson bo‘linadigan, bu qismlar hajm jihatidan mumkin qadar baravar bo‘lishi kerak. Demak, bayon matnining rejasini tuzishdan asosiy maqsad o‘quvchilarni materialni reja asosida mantiqiy izchillik bilan bayon qilishga, ularni bayon matnining rejasini mustaqil suratda tuzishga va tasvirlangan hikoya yoki maqolaning mazmunini yaxshi tushunishga o‘rgatishdir.

Matn rejasini tuzishda turli usullardan foydalanish mumkin. O‘quvchilar matnga reja tuzishni asosan ona tili va sinfda o‘qish darslarida o‘rganadi.

O‘qituvchi matnni reja asosida qayta hikoya qilishni, dastlab, so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz etadigan eng yaxshi o‘quvchilarga topshiradi. Bu narsa o‘quvchilarni qiziqtiradi. Boshqa o‘quvchilar o‘z o‘rtog‘ining hikoyasini eshitadilar, uning nutqidagi yutuq va kamchiliklarni hisobga oladilar, o‘qituvchining nutqidan esa namuna oladilar. So‘ngra ko‘pchilik o‘quvchilar matnni ana shunday qayta hikoya qilib berishga o‘tadilar. Lekin yozma bayon o‘tkazish vaqtida bayon matnini og‘zaki so‘zlab berishni bo‘sh o‘quvchilardan talab qilmaslik lozim. Chunki bu narsa matnni o‘zlashtirishga salbiy ta’sir qilishi mumkin.

Reja ikki xil bo‘ladi: 1) sodda reja; 2) murakkab reja.

Matnning asosiy qismlarini va misollarni o‘z ichiga olgan reja sodda reja bo‘ladi. Murakkab rejada sodda reja uchun tanlangan moddalar ikkinchi darajali qismlarga ajratiladi; bu mayda qismlar voqeaning butun ikir-chikirini o‘z ichiga oladigan yanada maydaroq qismlarga ajratiladi.

Matn rejasi ayrim matnni yoki matnning mavzusi, g‘oyaviy mazmuni, syujeti va kompozitsiyasini alohida-alohida yoritishga qaratilgan bo‘lishi mumkin.

Reja tuzish analitik va analitik-sintetik usulda olib boriladi. Bunda o‘qituvchi aniq mavzuning matnini dastavval oxiriga qadar o‘qiydi, so‘ngra qismlarga bo‘ladi va har bir qismning asosiy mazmunini, ularning bog‘lanishini batafsil tushuntiradi, so‘ngra matn rejasi tuziladi.

Matnning rejasini tuzish katta ahamiyatga ega, chunki o‘ylab tuzilgan sistemali reja o‘quvchi nutqining ixcham, puxta va aniq bo‘lishiga ko‘p yordam

beradi. Matnga yoki uning qismlariga qo'yilgan sarlavhalar, bayon rejasi turlicha ifodalanadi. Ular darak, so'roq, undov yoki atov gaplardan iborat bo'lishi mumkin. Matnni qisqartirib bayon etish birinchi sinfdanoq boshlanadigan ish sanaladi.

III sinfda matnni qayta so'zlab berishdagi asosiy vazifa matndagi izchillikni saqlash va rejaga amal qilishdir, chunki bu sinfda qayta so'zlab berishning asosiy tili hikoya qilishdir. IV sinfda esa matn mazmunining to'laligiga, birinchi va ikkinchi darajali materiallarni ajrata olishga, matnning muhim tomonlarini anglay olishga e'tibor qilish matnni qayta so'zlab berishdagi asosiy vazifadir. IV sinfda voqea-hodisalarni, xarakterlarni tasvirlab berish qayta hikoya qilishning yangi turi hisoblanadi. IV sinfdan boshlab matnni qayta hikoya qilib berish bilan birga matnning g'oyaviy tomonini ochib berishga ham e'tibor qilinadi. Matnni qayta so'zlab berish bayoni uchun tanlanadigan hikoya yoki parchaning faqat hajmi va mazmuniga emas, balki tiliga ham e'tibor berish zarur. O'qituvchi bu matnlardagi yangi sintaktik qurilishlarni nazarda tutishi, o'quvchilar esa matndagi yangi so'zlarni o'z bayonlariga ongli ravishda kiritishlari lozim.

IV sinfda qisqartirib qayta hikoya qilish uchun murakkab bo'lmagan, qisqa, qiziqarli, hikoya xarakteridagi matnlarni tanlash zarur. IV sinfda dastlab hikoya yo'li bilan yozilgan, keyin qisman tasviriy o'rinlari bo'lgan matnlarni tanlash kerak. Hikoyadagi so'zlovchi shaxsni o'zgartirib qayta hikoya qilishni IV sinfdan boshlash zarur. Lekin IV sinf o'quvchilaridan har vaqt ham bunday hikoya qilib berishni talab qilish shart emas. Agar matn ancha qiyin bo'lsa, u vaqtda birinchi shaxs nomidan hikoya qilish shaklidan foydalanish ma'qul.

Matnni qisqartirib bayon qilish uchun olib boriladigan barcha tayyorgarlik ishlari jamoa bo'lib uyushtiriladi. O'quvchilar matndagi muhim va ikkinchi darajali materiallarni ajrata olishlari kerak. Shundan so'ng bayon yozishga kirishiladi. Ammo bayon qilishni boshlashdan oldin o'quvchilarga rejaning har bir qismiga doir materiallarni alohida so'zlatib boriladi va ularni mumkin qadar qisqa, to'g'ri ifodalardan foydalanishga o'rgatiladi, shu bilan birga, ayrim o'quvchilarga reja asosida qisqacha og'zaki qayta so'zlatiladi. O'quvchilarga qisqa bayon yozish

uchun tayyorlanib kelish uyga vazifa qilib topshiriladi. Aniq faktlarni umumlashtirish maqsadida tanlangan bayon matnlari biografik xarakterda bo'lgan asarlardan yoki asar qahramonining hayotini tasvirlovchi boblardan olinishi muvofiqdir. Bunday ishning qimmati shundaki, o'quvchi matnni faol ravishda qaytadan ishlaydi, uni yangicha ifodalaydi. Matnni bayon qilishda ko'chirma va o'zlashtirma gaplarni o'z o'rnida ishlata bilish va ularni biridan ikkinchisiga aylantira bilish malakasi ham alohida ahamiyatga ega. O'zlashtirma gapni ko'chirma gapga aylantirish o'quvchilardan ma'lum ko'nikma talab qiladigan ancha qiyin ishdur. Shuning uchun bu ish IV sinfdan boshlanadi va V-VI sinflarda ham olib boriladi.

Ma'lum bir asardan yoki uning tegishli bobidan bir epizodni ajratib olib bayon etish IV sinf o'quvchilari uchun eng qiziqarli ishdur. Ajratib olingan bunday matn yuzasidan qayta hikoyalash uchun o'qituvchi avval bu parchani o'qib beradi; bu parcha kichikroq bo'lishi, o'quvchilarning yozib olishi mumkin bo'lgan epizodlarni o'z ichiga olishi kerak. I-IVsinflarda o'quvchilar ancha murakkab matnlar yuzasidan qayta hikoyalay boshlaydidar. IV sinfda o'quvchilar yirikroq asarlarning qisqa bayonini so'zlay olishi kerak. O'quvchilardan kichik asarlarning qisqartirilgan bayonini talab qilish foydalidir. Jumladan, masallarning qisqa bayonini talab qilish o'quvchilarning bu masallarni yaxshiroq o'zlashtirishlariga imkon beradi. Bu o'rinda masallardan chiqariladigan axloqiy xulosalar e'tiborga olinadi. Har qanday material haqida yozilgan qisqa qayta hikoyalash o'quvchilarning mustaqil fikr va mulohazalari natijasi sifatida tugallanishi kerak. IV sinfdan boshlab o'quvchilarni sitatalardan foydalanishga o'rgatish zaruriyati tug'iladi. O'qituvchi u yoki bu xil bayonni o'tkazayotgan vaqtda, sitatalardan foydalanish usullarini ko'rsatishi kerak. O'quvchilarga murakkabroq matnlardan sitata olishni, bu sitatalar qaysi muallif va qaysi manbadan olinganligini ko'rsatishni o'rgatish lozim.

II. BOB.

3- sinf o‘qish darsligidagi “Kuz manzarasi va mehnat” bo‘limi asarlarni o‘qitish orqali reja ustida ishlash metodikasi

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 3- sinf uchun amaldagi o‘qish darsligi Muhabbat Umarova, Xurshida Hamraqulova, Ra’no Tojiboyevalar tomonidan tuzilgan bo‘lib, 2012- yil “O‘zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyida nashr etilgan. Darslikning mas’ul muharriri filologiya fanlari doktori, professor Naim Karimov, taqrizchilari: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, bolalar shoiri Tursuboy Adashboyev, O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi Abduroziq Rafiyev, Respublika ta’lim markazi boshlang‘ich ta’lim bo‘limi boshlig‘i Nazira Ahmedova, Toshkent viloyati PKQTMOI dotsenti Rixsi Ubayxo‘jayeva, Toshkent shahar 26- maktabning boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi Yulduz Jabborovalar.

Darslik⁵ning “Kuz manzarasi va mehnat” bo‘limi (51-67-betlar)da badiiy adabiyotning lirik va epik turlariga mansub 12ta matnlar berilgan bo‘lib, bu matnlar mustaqillik ruhini o‘zida aks ettira olgan yoxud o‘tmish hayotidan olingan bo‘lsa-da, mustaqillik farzandini ruh va didiga mos, uning tarbiyasini to‘g‘ri shakllantirishga xizmat qila oladi. Ishda ushbu bo‘limda berilgan lirik va epik turga mansub mavzularni yoritishga ahd qildik.

Bo‘limda “Oltin kuz” matni, Tolib Yo‘ldoshning “Kuz kelganda” she’ri, Mahmud Murodovning “Olma” hikoyasi, Yo‘ldosh Sulaymonning “Kuz” she’ri, Malik Murodovning “Mehrjon sayli” matni, Feruza Jalilovanning “Qo‘riqchining sabog‘i” ertagi, Hakim Nazirning “Bebaho boylik” hikoyasi, “Bobur va kabutar” rivoyati, Nurmat Mahsudiyning “Ilmli ming yashar” hikoyasi, Anvar Obidjonning “So‘nggi axborot” she’ri, O‘tkir Hoshimovning “Xazonchinak” hikoyasi, Abdusodiq Irisovning “Qo‘shterak” hikoyasi o‘rin olgan.

⁵ Umarova M., Hamroqulova X., Tojiboyeva R. O‘qish kitobi. 3-sinf uchun darslik. – Toshkent: O‘zbekiston, 2012. – 224 b.

Bo‘limdagi Tolib Yo‘ldoshning “Kuz kelganda”, Yo‘ldosh Sulaymonning “Kuz”, Anvar Obidjonning “So‘nggi axborot” she‘rlari lirik turga; Mahmud Murodovning “Olma”, Hakim Nazirning “Bebaho boylik”, Nurmat Mahsudiyning “Ilmli ming yashar”, O‘tkir Hoshimovning “Xazonchinak”, Abdusodiq Irisovning “Qo‘shterak” hikoyalari, Feruza Jalilovaning “Qo‘riqchining sabog‘i” ertagi, “Bobur va kabutar” rivoyati nasriy turga; “Oltin kuz” va Malik Murodovning “Mehrjon sayli” matni ilmiy-ommabop turga mansub.

1-§. “Kuz manzarasi va mehnat” bo‘limidagi she‘riy asarlar ustida ishlashda o‘quvchilarni reja tuzishga o‘rgatish metodikasi

Bo‘limda Tolib Yo‘ldoshning “Kuz kelganda”, Yo‘ldosh Sulaymonning “Kuz”, Anvar Obidjonning “So‘nggi axborot” she‘rlari lirik turga mansub bo‘lib, bolalar adabiyotining go‘zal namunasi sanaladi. She‘r – ohang jihatidan ma‘lum bir tartibga solingan, his-tuyg‘u ifodasi sifatida vujudga kelgan hayajonli ritmik nutq. She‘riy nutqni ohang jihatidan ma‘lum bir tartibga solish vositalari ritm (bir-biriga monand kichik bo‘laklarning izchil va bir me‘yorda takrorlanib kelishi) va qofiya (misralarning oxirida keladigan ohangdosh so‘zlar) hisoblanadi⁶.

Lirik she‘rni o‘qish mobaynida kichik yoshdagi o‘quvchilar tabiat va jamiyat voqea-hodisalarining poetik tasviridan hayajonlanishlari muhim ahamiyatga ega. Boshlang‘ich sinflarda she‘r tarzida yozilgan hikoyalar, ertaklar, ya‘ni she‘riy asarlar va lirik she‘rlar o‘qitiladi.

She‘riy hikoya, she‘riy ertaklarda syujet, ya‘ni voqealar tizimi va uning rivoji xarakterlidir. Lirik she‘r «biror hayotiy voqea-hodisa ta‘sirida insonda tug‘ilgan ruhiy kechinma, fikr va tuyg‘ular orqali turmushni aks ettiradi». Lirik she‘rning xususiyati «kishining his-tuyg‘uga to‘la hayajonli nutqini ta‘sirliroq ifodalashda qo‘l keladi»⁷.

⁶ Хомидий Х., Абдуллаева Ш., Иброҳимова С. Адабиётшунослик терминлари луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1967. – Б.247.

⁷ Хомидий Х. ва бошқ. Адабиётшунослик терминлари луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1967. – Б.93.

She'rni o'qish darslarida asosiy ish turi ifodali o'qish hisoblanadi. O'quvchi she'rning asosiy mazmunini tushunsagina, uni ifodali o'qiy oladi.

She'riy hikoyani tahlil qilishda, asosan, hikoya, ertak, masalni tahlil qilishda qo'llangan ish turlaridan foydalanish mumkin.

Lirik she'rni o'qish va tahlil qilish o'qituvchidan katta mahorat talab qiladi. Holbuki, ko'p hollarda she'rga oddiy matn nuqtai nazaridan yondashiladi. Bunday holda she'riy san'at hissiyot bilan bog'liq ekanligi unutiladi, she'r ma'nosining satrlar, so'zlar zaminida yashirin berilishi anglab etilmaydi. Buning oqibatida o'quvchilar she'rdagi obrazlilikning mag'zini chaqa olmaydilar. Vaholanki, har qanday asar zaminidagi yashirin ma'noni uqish mehnattalab ishdur. Busiz hatto adabiy ta'limning maqsadi ham amalga oshmaydi.

She'riy ohangni his qilmaslik, matndagi so'zlarning ma'nosini to'la tushunib etmaslik she'r yodlashni zerikarli mashg'ulotga aylantiradi. Ma'nosi anglanmagan matnni yodlash oson kechmaydi. Buni deyarli barcha sinflarda o'rganiladigan «O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi» misolida ko'rish mumkin. Ma'lumki, madhiya kichik yoshdagi bolalarga mo'ljallab maxsus yaratilmaydi. Binobarin, uning matnidagi «hur o'lka», «to abad», «ilm-u fan», «shuhrating», «ajdodlar», «mardona ruhi senga yor», «o'chmas iymoni», «istiqlol mash'ali», «tinchlik posboni», «haqsevar ona yurt», «mangu bo'l obod», «jo'sh urgan» kabi ko'pdan ko'p so'zlar, iboralar o'quvchilarga izohlab tushuntirilmasa, ta'limdan ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi. Bu so'zlarning o'z ma'nosidan tashqari ko'chma ma'no bildirishi, badiiy vosita bajarishi o'quvchilarda his qildirilishi kerak⁸.

2-sinfda Tolib Yo'ldoshning «Kuz kelganda» she'ri⁹ni o'rganishda albatta tabiat manzaralarini izohlash talab etiladi. She'rni o'qishdan oldin unda tasvirlangan yil fasllari haqida suhbat o'tkaziladi yoki she'r mazmunini tushunish

⁸ Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2009. – B.126.

⁹ Umarova M., Hamroqulova X., Tojiboyeva R. O'qish kitobi. 3-sinf uchun darslik. – Toshkent: O'zbekiston, 2012. – B.52.

uchun o'quvchilar bilishi lozim bo'lgan voqealarni o'qituvchi qisqa qilib aytib beradi.

Ma'lumki, kuz fasli oltin kabi tovlanadi, uning har kuni sukutda, kunlar keskin emas, bir maromda bo'ladi. Tabiat o'zgarishlari asta-sekinlik bilan ro'y beradi. Kuzning xosiyati odamda yoqimli tuyg'ular uyg'otadi. Kuzda bolalar bog'larda mevalarni yig'ish, qishga zamin tayyorlashda bevosita ota-onalariga ko'maklashadilar. Bolalarning kuzgi o'yinlarini o'ynashadi.

She'rini o'rganish jarayonida tabiat bag'riga sayohat uyushtirish ayni muddao bo'ladi. Bolalar yozgi tabiat manzarasiga kuz manzarasini taqqoslaydilar. Yoz va kuzning farqli va o'xshash xususiyatlarini farqlab oladilar va dars davomida fikrlarini bildiradilar.

Boshlang'ich sinflarda ko'rgazmali ta'limning asosiy shakli she'rni ifodali o'qish hisoblanadi. Lirik she'rni ham o'quvchilar hayajon bilan yaxlit idrok etishlariga erishish muhim. Shuning uchun she'r birinchi marta o'qilganda, hech qanday tushuntirish berilmaydi. She'r o'quvchilarga qanday ta'sir qilganini hisobga olish, bilish zarur. O'qituvchi she'rni shunday ifodali o'qishi kerakki, bolalar uning asosiy mazmunini anglasinlar, ularga jonli so'z kuchliroq ta'sir etsin. So'ngra she'rni mustaqil o'qish topshiriladi. O'qish oddiy bo'lishi kerak. O'qiyotganda tabiiy zavq-shavq, shodlik, xursandlik, qahr-g'azab hissini qichqiriq ovoz bilan soxta ifodalashga yo'l qo'ymaslik zarur. Bolalar she'rni o'qiganda, she'riy satrga rioya qilishlari, bu jarayonda ularning she'r ritmini buzmasliklariga erishish kerak.

O'quvchilar she'r matnini mustaqil o'qiyotganlarida xattaxtaga ma'nosi izohlanadigan so'zlar yozib qo'yiladi. Masalan, «Kuz kelganda» she'ri o'rganilganda «yoz ne'mati», «ko'zimiz to'q», «dimog'lar chog'», «xush bo'yiga», «xumda shinni» so'zlari izohlanadi. Shundan so'ng, she'r o'quvchilarga navbat bilan o'qittiriladi, uning mazmuni yuzasidan savollar asosida suhbat o'tkaziladi. Bunda quyidagicha savollar berilishi mumkin: «She'rda qaysi fasl tasvirlangan ekan?», «Yoz ne'matlari nimalar?», «She'rda ko'zimiz to'q deb nima ifoda

qilinyapti?». O‘qituvchi berilgan javoblarni to‘ldirib, o‘quvchilarning kuz fasliga doir tushunchalarini boyitadi.

She’r matni ham savollar asosida tahlil qilinadi. Ammo, she’r mazmuni haqida o‘quvchilarga ko‘p savol berish tavsiya etilmaydi. O‘quvchilar she’rning asosiy mazmunini tushunganliklariga ishonch hosil qilishning o‘zi kifoya. Shuni ham aytish kerakki, bolalar hayoti, ularning o‘ziga xos fikrlari, his-tuyg‘ulari, qiziqishlarini ifodalovchi, shuningdek, zamonamiz qahramonlari, o‘zbek xalqi, Vatan himoyasi, xalqimizning qahramonona ishlari haqidagi she’rlar mazmunini to‘liqroq tahlil qilish talab etiladi. Bunday she’rlarni o‘qishga maxsus tayyorlaniladi: she’r mazmuniga asos bo‘lgan tarixiy voqea haqida qisqacha so‘zlab beriladi yoki suhbat o‘tkaziladi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘rganiladigan ko‘pgina she’rlarni tahlil qilib, ifodali o‘qish mashq qilingach, ifodali yod aytib berish vazifasi topshiriladi.

She’riy nutq engil yodlab olinadi, bolada estetik his-tuyg‘u uyg‘otadi. Kichik yoshdagi o‘quvchilar saviyasiga mos bolalarbop ravshan til bilan yozilgan sodd ritmli jarangdor she’rlarni bolalar tez va oson yodlab oladilar.

Kichik yoshdagi o‘quvchilarga she’rni qanday yodlash kerakligi o‘rgatiladi. Buning uchun o‘qituvchi o‘quvchilar bilan she’rni teng satrli bir necha qismga bo‘ladi, O‘quvchilarga har bir satr oxirida pauza (to‘xtam) qilish, buning uchun satr oxirida tinish belgisi bo‘lishi shartmasligi, ritmik to‘xtamda ovozni nuqtadagi kabi pasaytirmaslik lozimligi, bu tugallanmagan fikrni davom ettirishga imkon berishi tushuntiriladi va bo‘lingan qismlar navbati bilan yodlatiladi.

She’rni izohli o‘qish darsining tuzilishi quyidagicha bo‘lishi mumkin:

- 1) she’r mazmunini yaxlit idrok etish uchun uni ifodali o‘qib berish (birinchi sintez);
- 2) she’rda tasvirlangan payt, hodisa haqida suhbat (analiz);
- 3) she’rni ifodali o‘qishni mashq qilish (ikkinchi sintez);
- 4) she’rni yod aytib berishga tayyorlanish;
- 5) she’rdagi notanish so‘zlar ustida ishlash.

Tolib Yo‘ldoshning “Kuz kelganda” she‘ri(52-bet)ni izohli o‘qish darsining varianti sxemasi quyidagicha bo‘lishi mumkin:

- 1) she‘r mazmunini yaxlit idrok etish uchun uni ifodali o‘qib berish (birinchi sintez);
- 2) She‘rda tasvirlangan bahor belgilari haqida suhbat (analiz);
- 3) she‘rni ifodali o‘qishni mashq qilish (ikkinchi sintez);
- 4) uyda she‘rni ifodali o‘qish va yod aytib berishga tayyorlanish;
- 5) keyingi darsda she‘rni ifodali o‘qitish, ifodali yoddan aytirish.

Kuz kelganda¹⁰

Tolib Yo‘ldosh

Kuz kelganda, uyimizda to‘y bo‘ladi,
Qo‘zichog‘im o‘sib katta qo‘y bo‘ladi.
Uzumlarni pay uramiz, qovun osib,
Hamma yoqni yoz ne‘mati ketar bosib.
Qopda yong‘oq, xumda shinni qish bo‘yiga,
Ko‘zimiz to‘q, dimog‘lar chog‘ xush bo‘yiga.
She‘r yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. She‘rni ovoz chiqarmay o‘qing.
2. “Yoz ne‘mati” deganda nimalarni tushunasiz? “*Hamma yoqni yoz ne‘mati ketar bosib*” misrasining mazmunini so‘zlab bering.
3. O‘zingiz yashayotgan shahar, qishloq, tuman, viloyat va qishloq nomlarini ayting.
4. She‘rni yod oling.

Yuqoridagi savollarga javob olgach, she‘r matni ustida quyidagicha ish olib borishni tavsiya qilamiz.

1. She‘rdagi qofiyadosh so‘zlarni aniqlang.

She‘rdagi qofiyadosh so‘zlar: to‘y – qo‘y; osib – bosib; qish – xush.

¹⁰ Umarova M., Hamroqulova X., Tojiboyeva R. O‘qish kitobi. 3-sinf uchun darslik. – Toshkent: O‘zbekiston, 2012. – B.52.

Bo'ladi-bo'ladi va bo'yiga-bo'yiga so'zlari qofiyadan keyin keluvchi takror sanaladi, u qofiya emas.

2. She'ning qofiyalanish tartibi qanday?

She'ning qofiyalanish tartibi: a-a-b-b-d-d.

Shu o'rinda qofiya haqidagi bilimlar yana bir bor esga olinsa, ishning samarasi yana ham oshadi.

Qofiya – misralarning ohirida keladigan ohangdosh so'zlar. Qofiya she'riy nutqni ohangli va ta'sirli qiladi¹¹.

3. She'r hijosini aniqlang.

Hijo – bir nafas olish bilan aytiladigan so'zdagi tovush va tovushlar birikmasi – she'riy nutq o'lchovidvida dastlabki ritmik bo'lak¹².

She'r hijosi:

Kuz kel-gan-da, / u-yi-miz-da / to'y bo'-la-di,

Qo'-zi-cho-g'im / o'-sib kat-ta / qo'y bo'-la-di.

She'r o'n ikki hijoli, ikki turoqdan tuzilgan (4+4+4).

Turoq – barmoq vaznidagi she'r misralaridagi ritmik bo'laklar. Turoq she'ning ohangini tartibga solish, ya'ni she'ning ritmini va musiqiylikni vujudga keltirishda asosiy vositalardandir. She'riy misralarda ikki, uch va undan ortiq turoqning bo'lishi mumkin¹³.

4. She'rdagi qaysi so'zlar ko'chma ma'noda ishlatilgan?

She'rda quyidagi so'zlar ko'chma ma'noda ishlatilgan: uyimizda to'y bo'ladi, yoz ne'mati ketar bosib, ko'zimiz to'q.

Ma'lumki, so'zning yangi ma'no kasb etishi – ko'chma ma'noda qo'llanilishi biron bir ob'ektiv sabablar asosida ro'y beradi. Bunda ma'lum narsa, belgi, harakat bildiruvchi so'z qandaydir o'xshashlik, o'zaro aloqadorlik, bog'liqlik, vazifadoshlik kabilar asosida boshqa bir narsa, belgi, harakatni ham ataydigan bo'lib qoladi, uning ham nomi sifatida ishlatila boshlaydi. Ma'no

¹¹ Хомидий Х. ва бошқ. Адабиётшунослик терминлари луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1967. – Б.267.

¹² Хомидий Х. ва бошқ. Адабиётшунослик терминлари луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1967. – Б.271.

¹³ Хомидий Х. ва бошқ. Адабиётшунослик терминлари луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1967. – Б.229.

ko‘chirilishining metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik degan turlari mavjud.

Kichik hajmli she‘riy asarlarni o‘qitishda ham reja asosida hikoyalashni amalga oshirish mumkinmi? Albatta, bunday asarlar bilan ishlashda reja asosida ishlash biroz qiyin kechsa-da ta’limda samarali foydalanish mumkin.

Reja:

1. Kuz keldi.
2. Mevalar pishdi.
3. Qishga hozirlik ko‘rdik.

Reja asosida quyidagicha hikoya tuzish mumkin:

O‘lkamizga oltin kuz kirib keldi. Yozning jazirama issiqlari tugab, jonga huzur beruvchi salqin kuz havosi boshlandi. Kunlar juda sekinlik bilan salqinlay boshlagani uchun ob-havo juda keskin emas. Kuzning birinchi kuni Mustaqilligimizning 21 yilligini zo‘r tantana bilan nishonladik. Ikkinchi sentyabr kuni esa “Bilimlar bayrami”ni ham katta shodlik bilan o‘tkazdik. Kuz bayramlarga juda boy.

Kuzda olma, shaftoli, nok, olxo‘ri, anor, xurmo, yong‘oq, uzum, sabzi, piyoz, kartoshka, sholg‘om, turp pishadi. Bog‘bonlar bog‘dagi mevalarni yig‘ib-terib olishgach daraxtlarga ishlov berishadi. Dehqonlar hosilni yig‘ib olishib yerlarni haydashadi, ba’zi maydonlarga bug‘doy, arpa, roj, raps kabi dukkakli ekinlarni ekishadi.

Hamma qishga hozirlik ko‘radi. Oila boshliqlari omborxonalarni kuzgi meva, poliz ekinlari va sabzavotlar bilan to‘ldiradilar. Uy hayvonlari uchun xashak jamg‘aradilar. Ba’zi mirishkor dehqonlar qishda ham dasturxonimizdan ko‘katlar uzilmasligi uchun ochiq maydonga ismaloq, issiqxonalarga esa kashnich, ukrop, bodring, pomidor ekishadi.

O‘quvchilar kichik hajmli she‘rni qayta bayonini shu asosda tashkillasalar, ish juda oson kechadi. O‘quvchilarning fikrini ketma-ket – uzviy bayon etishlariga o‘rgatishda muhim vosita sanaladi.

Darslikning 54-betida Yo‘ldosh Sulaymonning “Kuz” she’ri¹⁴ keltirilgan.

Marvarid kuz
Qildi ko‘z-ko‘z
Bisotida borini.
Bog‘da hil-hil
Meva xil-xil
Sanab bo‘lmas barini.
Istasangiz
Saylab-saylab
Husaynidan uzasiz.
Nok, shaftoli,
Anjir boli
Xuddi qaymoqmi deysiz.
Ko‘ngil ochar
G‘ashlik qochar
Oralasang pushtani.
Chindan arzir
Ta’riflasang
Kuzdagi nonushtani.
Shunday go‘zal,
Shunday asal
Ehson¹⁵ tutgan o‘zi kim?
Dehqon og‘am,
Dehqon tog‘am,
O‘sha dehqon amakim.

1.She’rni ifodali o‘qing.

2.Kuzda nimalar mo‘l-ko‘l bo‘ladi?

¹⁴ Umarova M., Hamroqulova X., Tojiboyeva R. O‘qish kitobi. 3-sinf uchun darslik. – Toshkent: O‘zbekiston, 2012. – B.53-54.

¹⁵ Ehson – hadya, ih‘om, sovg‘a.

Kuzda hamma mevalar, poliz ekinlari g'arq pishib yetiladi. Bog'larda nok, olma, yong'oq, shaftoli, anor, uzum, behi, xurmolar pishgani uchun ularni yig'ib omborlarga joylaymiz. Polizda tarvuz, qovun, oshqovoq yetilsa, sabzi, kartoshka, piyoz, baqlajon, bolgar qalampiri qabi sabzavotlar pishadi.

3. She'rda kuzdagi nonushta haqida nima deyilgan? SHu bandni o'qing.

Ko'ngil ochar

G'ashlik qochar

Oralasang pushtani.

Chindan arzir

Ta'riflasang

Kuzdagi nonushtani.

4. "Ehson" so'zini qanday tushunasiz?

EHSON [arabcha. – yaxshilik samimiylik, muruvvat; biror narsani hadya qilish; xayr-sadaqa] **1** Xayrli, savobli ish, kori xayr; ezgulik. *Baxil ehsrndan qochar, xasis – mehmondan.*

3 Umuman, hadya, in'om. *Yozning ehsoni, olinglar, aziz mehmonlar!* Oybek Ulug' yo'l¹⁶.

Bu mevalarni kimlar yetishtirgan?

Shirin-shakar kuz mevalarini mehnatkash dehqon bobolarimiz yetishtirganlar.

She'rni yod oling.

Yuqoridagi ishlar bajarilgach, she'r tuzilishi yuzasidan quyidagicha ish olib borish o'quvchilarning she'r tuzilishiga oid bilimlarini kengaytiradi.

1. She'rdagi qofiyadosh so'zlarni aniqlang.

She'rdagi qofiyadosh so'zlar: kuz – ko'z; hil – xil; borini – barini; go'zal – asal; og'am – tog'am; kim – amakim.

2. She'rning qofiyalanish tartibi qanday?

She'rning qofiyalanish tartibi: a-a-b-d-d-b.

¹⁶ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: ЎМЭ, 2008. – 5-том. – Б.69.

Shu o‘rinda qofiya haqidagi nazariy bilimlar yana bir bor esga olinadi.

3. She‘r hijosini aniqlang.

She‘r hijosi:

Mar-va-rid kuz

Qil-di ko‘z-ko‘z

Bi-so-ti-da/bo-ri-ni.

Bog‘-da hil-hil

Me-va xil-xil

Sa-nab bo‘l-mas /ba-ri-ni.

She‘r to‘rt va yetti hijoli, 1-,2-,4-,5-misralar to‘rt hijoli bo‘lib, bir turoqli, 3-va 6- misralar yetti hijoli bo‘lib, ikki turoqdan tuzilgan (3+4).

4. She‘rdagi qaysi so‘zlar ko‘chma ma’noda ishlatilgan?

She‘rda quyidagi so‘zlar ko‘chma ma’noda ishlatilgan: marvarid kuz, qildi ko‘z-ko‘z, bisotida borini, xuddi qaymoqmi deysiz, g‘ashlik qochar.

“Bog‘da hil-hil Meva xil-xil” misrasidagi hil va xil so‘zlari o‘zaro paronim bo‘lib, izohli yoki paronimlar lug‘atidagi izohi bilan o‘qituvchi tanish bo‘lmog‘i lozim.

HIL-HIL: hil-hil pishmoq Yetilib, yumshab pishmoq. Hil-hil pishgan yumshoq kabobni piyoz qo‘shib yeya boshladi. Oybek, Ulug‘ yo‘l¹⁷.

XIL [*arabcha* – xususiyat, sifat] biror narsaning navi, turi; zot, jins. *Atlasning yetti xil rang jilosi*¹⁸.

She‘r yuzasidan suhbat o‘tkazishda fikrning tartibli olib borish uchun reja tuzish eng maqbul ish sanaladi.

Reja:

1.Kuzgi bog‘ning tasviri.

2.Poliz ekinlari ham g‘arq pishdi.

3.Kuzgi serobchilik uchun dehqonlarga rahmat.

¹⁷ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: ЎМЭ, 2008. – 5-том. – Б.530.

¹⁸ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: ЎМЭ, 2008. – 4-том. – Б.397.

Reja asosida quyidagicha bog‘lanishli matn tuzish mumkin:

Kuz kelishi bilan havo salqinlasha boshlaydi. Daraxtlarning barglari yashillikdan sariq va qizilga moyil ranglarga aylana boshlaydi. Issiqsevar qushlar o‘zlariga yoqadigan yurtlarga parvoz qiladi. Sovuqni hushlaydigan qushlar o‘lkamizga uchib keladi. Bog‘dagi mevalar g‘arq pishib, sharbatga to‘lganligi sababli ularni qish uchun omborxonalarga jamg‘ariladi. Mevalarning barglari to‘liq tushib bo‘lgach, qishki uyquga ketganlarida bobodehqon ularga chiroyli shakl beradi. Tagini yumshatib, kuzgi suvini beradi.

Polizlarda o‘zini semizlikdan eplay olmagan tarvuz, qovun va oshqovoqlar dumalab yotibdi. Yil bo‘yi qilingan mehnati samarasini ko‘rgan mirishkor hosildan xursand. Mana polizga yuk mashinalari ham kirib keldi. Biz bobomizning yetishtirgan poliz mahsulotlarini ehtiyotkorlik bilan mashinalarga joylashga kirishdik. Hosilning mo‘lligidan bir necha fursatda mashinalarni yukka to‘ldirdik. Mashinalar hosilni olib karvondek tizilishib omborxonalarga yo‘l olishdi.

Qaerga qaramang, hamma yoqda kuz mevalari liq to‘la. Dalalarimizda yetishtirilgan meva, sabzavot va poliz ekinlarini ko‘rib ko‘zing quvnaydi, ta‘mini totib diling shodlanadi. O‘lkamizda yetishtirilmaydigan mevalarning o‘z yo‘q. Xohlagan ekin tomarqamizda bor. Bularni yetishtirish uchun biroz qunt bo‘lsa yetarli. Shu sababli men ham tomarqamizga kuz kelishi bilan sarimsoqpiyoz, ukrop, kashnich, ismaloq, piyoz, sholg‘om, turp, qizilcha, bug‘doy, arpa, roj kabi ekinlarni ekaman. Bu ekinlar qish bo‘yi bog‘imizni ko‘m-ko‘k qilib turadi. O‘z mehnatingizning samarasini kuzatish qanday mazza! Istiqlool bergan ozodlik bog‘larimizning ko‘rkini ham tarovatli qilib yubordi.

Darslikning 63- betida Anvar Obidjonning “So‘nggi axborot” she‘ri¹⁹ berilgan.

¹⁹ Umarova M., Hamroqulova X., Tojiboyeva R. O‘qish kitobi. 3-sinf uchun darslik. – Toshkent: O‘zbekiston, 2012. – B.63.

Boʻlib oʻtdi qishloqda
Kecha zoʻr shamol.
Natijada roʻy berdi,
Anchayin kor-hol.
Uzum boshi aylanib,
Boʻp qoldi kasal.
Shoxdan yiqilib olma,
Yotibdi oʻsal.
Hatto gilos lat yedi,
Boʻlsa ham abjir.
Toʻqnashuvda anorga
Chaplandi anjir.

Shamollatdi qornini,
Oshqovoq polvon.
Pachol qildi burnini,
Mulla baqlajon.
Uyquchiroq bir tarvuz,
Yumalab borib,
Uygʻotibdi qovunni
Boshini yorib.
Noklar yerga toʻkildi,
Boʻlishib bir tom.
Ammo zarar koʻrmadi
Sabzi va sholgʻom.

Sheʼr yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Shamol nimalarga zarar yetkazdi?
2. Nima uchun qovunning boshi yorildi?
3. Nimalar zarar koʻrmadi? Nima uchun?
4. Bu hodisa qaysi faslda boʻladi?
5. Mavzuga mos topishmoqlar ayting.

Yuqoridagi ishlar bajarilgach, sheʼr tuzilishi yuzasidan quyidagicha ish olib borish oʻquvchilarning sheʼr tuzilishiga oid bilimlarini kengaytiradi.

1. Sheʼrdagi qofiyadosh soʻzlarni aniqlang.

Sheʼrdagi qofiyadosh soʻzlar: shamol – kor-hol; kasal – oʻsal; abjir – anjir; polvon – baqlajon; borib – yorib; jom – sholgʻom.

2. Sheʼrning qofiyalanish tartibi qanday?

Sheʼrning qofiyalanish tartibi: a-b-d-b.

Shu oʻrinda qofiya haqidagi nazariy bilimlar yana bir bor esga olinadi.

3. Sheʼr hijosini aniqlang.

Sheʼr hijosi:

Bo‘-lib o‘t-di/ qish-loq-da

Ke-cha zo‘r/ sha-mol.

Na-ti-ja-da/ ro‘y ber-di,

An-cha-yin/ kor-hol.

She‘r yetti va besh hijoli, 1-,3-misralar yetti hijoli, 2- va 4- misralar besh hijoli bo‘lib, ikki turoqdan tuzilgan (4+3 va 3+2).

4. She‘rdagi qaysi so‘zlar ko‘chma ma‘noda ishlatilgan?

She‘rda quyidagi so‘zlar ko‘chma ma‘noda ishlatilgan: uzum boshi aylanib bo‘p qoldi kasal, shoxdan yiqilib olma yotibdi o‘sal, gilos lat yedi, oshqovoqning qorni shamollab qoldi, mulla baqlajonning burni pachoq bo‘ldi, tarvuz qovunning boshini yordi.

She‘rda badiiy san‘atning go‘zal namunasi jonlantirishdan juda keng va samarali foydalanilgan. Yuqoridagi ma‘no ko‘chishga keltirgan misollarimizning hammasi jonlantirishga asos bo‘la oladi. Shu sababli bu san‘at haqida quyida qisqacha ma‘lumot keltirish o‘rinli sanaladi.

Jonlantirish badiiy nutqqa obrazlilik baxsh etuvchi muhim vositalardan biridir. «Badiiy san‘atlar» kitobi mualliflari bu haqda shunday yozadilar: «Jonlantirish – istioraning bir ko‘rinishi. Jonlantirish odamlarga xos bo‘lgan xislatlarni jonsiz predmetlar, tabiat hodisalari, hayvonot, parranda, qush kabilarga ko‘chirish orqali paydo bo‘ladigan tasvir usulidir.»²⁰ «O‘zbek tili stilistikasi»da ham «kishilarning harakatlari, his tuyg‘ulari, so‘zlash va fikrlashlari jonsiz predmetlarga ko‘chirilishi»ga²¹ jonlantirish deyilishi ta’kidlanadi. Mumtoz adabiyotimizda jonlantirishning ikki turi farqlangan:

1.**Tashxis** – shaxslashtirish, jonsiz narsalarni insonlarday qilib tasvirlash. She‘riyatda jonlantirishdan voqelikni obrazli tasvirlash maqsadida foydalaniladi. Tasvir ob‘ektiga kitobxonni yaqinlashtirish, voqelikning anglanishini osonlantirish va quruq-rangsiz ifodadan qochish uchun ham mazkur usulga murojaat qilinadi.

²⁰ Бобоев Т., Бобоева З. Бадий санъатлар. ТДПУ, 2001. – Б.11.

²¹ Шомаксудов А., Расулов И., Қўнгулов Р, Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. Т.: Ўқитувчи, 1983. – Б.245.

Quyidagi she'riy parchada muallif «uzum»ni jonlantirish orqali kitobxonning tasvirlanayotgan voqelikka munosabatini faollashtiradi:

Uzum boshi aylanib,

Bo'p qoldi kasal.

2.**Intoq** – nutq sohibi sifatida tasvirlash, insonlardek gapirtirish demak. Intoq bolalarga atalgan she'r va hikoyalarda, ertak va masallarda ko'p qo'llaniladi. Intoq san'atidan masallarda alohida maqsad bilan foydalaniladi. Insonlarga xos ba'zi qusurlar, kamchiliklar narsa-buyumlar misolida obrazli qilib ko'rsatib beriladi. Yevropa adabiyotshunoslik ilmida **allegoriya** deb ataladigan ko'chim ham «gapirtirish» usuliga asoslanadi. Intoq-jonlantirishda narsa va buyumlar, hayvonlar insonlardek gapiradi. Allegorik-jonlantirishda «hayvon va jonivorlar insonlar kabi harakat qiladi, ular kabi gapiradi. O'quvchi esa asosiy e'tiborini shu hayvonlar orqali tasvirlanayotgan inson obraziga qaratadi. Demak, allegoriyada obrazlar sistemasi ikki qator hisoblanadi, ya'ni asarda tasvirlanayotgan hayvonlar obrazlari qatori va ular orqali shu xarakterdagi kishilar qatori.»²²

O'quvchilar bilan she'r matni ustida ishlangach, quyidagi reja bilan ishlashni tatbiq qilamiz.

Reja:

- 1.Qattiq shamol kedi.
- 2.Mevalar ancha shikast yedi.
- 3.Poliz ekinlari zarar ko'rmadi.

Reja asosida quyidagicha hikoyalashni tashkillash mumkin.

Kuz kunlarining birida qishloqda qattiq shamol bo'lib o'tdi. Natijada tabiatda meva, sabzavot va poliz ekinlari anchayin kor-hol ko'rishdi. Uzum shamolning zo'ridan boshi aylanib, o'zini bilmay kasal kishi singari betob bo'lib qolibdi. Olma shoxidan yiqilib tushib o'sal kasalga chalinibdi. Gilos abjir bo'lsa-da biroz lat yebdi. Shamolning kuchliligidan anjir anorga chaplanib qolibdi. Oshqovoq ochiq yerda bo'lganligi sababli qornini shabodalatib oldi. Baqlajon

²² Шомақсудов А. ва бошқ. Ўша асар. Б.46.

burnini urib pachoq qildi, uyquchi tarvuz dumalab borib qovunning boshini yorgach uygʻonibdi. Noklar shamolning zoʻrligidan yerga duv toʻkildi, bu jangda sabzi va sholgʻom yer tagida boʻlganligi sababli shikast olmadi.

Oʻquv mashgʻulotlarini yangi zamonaviy shakl va usullarda tashkil qilish, oʻquvchilarni dars jarayonida maqsadni boshqara olish oʻqituvchilik faoliyatining bosh mezonini deb qaralmoqda.

Ilgʻor pedagogik texnologiyaga asoslangan zamonaviy dars turlari va shakllarini qoʻllash, oʻquvchining taʼlim jarayonidagi oʻrni, unga yangicha yondashuv, yangicha munosabatni taʼminlash, mazkur jarayonni mohirlik va idrok bilan boshqarish demakdir.

Mustaqillik tufayli yuz berayotgan hozirgi yangilanishlar, jamiyatimiz taraqqiyoti va istiqboli, taʼlim sohasidagi islohotlar umumjahon andozalariga mos keladigan, zamon talablariga javob beradigan, yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash bilan chambarchas bogʻliq.

Shunday ekan, avvalo, oʻqituvchiga zamonaviy bilim berish, ularning maʼlumoti va malakasini oshirishda «...bir qolipdagi taʼlim-tarbiya tizimiga xos sarqitlardan qutilish» zarur. Yoshlarning ilmiy ijodiy faoliyatini chegaralamaydigan, uni faol tinglovchiga emas, balki faol ijodkorga aylantiradigan kashfiyot taʼlim usuli bilan ishlash oʻquvchi-oʻqituvchi munosabatlarini yoʻlga qoʻyadigan toʻgʻri va samarali imkoniyatlarni topish va ishga solish zarur.

Oʻquvchilarni toʻgʻri, tushunib va ifodali oʻqishga oʻrgatish, oʻqish darslarida tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish maktabning barcha bosqichlarida xam muhim vazifalaridan biri hisoblangan.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarining toʻgʻri tushunib va belgilangan meʼyorda ifodali oʻqish malakalari yaxshi rivojlansa, taʼlimning keyingi bosqichlarida muvaffaqiyatlarga erishadilar.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilariga oʻqishni oʻrgatish ularga tarbiyaviy taʼsir etish bilan bogʻliq holda amalga oshiriladi.

2-§. “Kuz manzarasi va mehnat” bo‘limidagi hikoyalarni o‘qitish orqali reja asosida hikoyalash o‘quvchi nutqini o‘stirishning faol usulidir

Bo‘limda Mahmud Murodovning “Olma”, Hakim Nazirning “Bebaho boylik”, Nurmat Mahsudiyning “Ilmli ming yashar”, O‘tkir Hoshimovning “Xazonchinak”, Abdusodiq Irisovning “Qo‘shterak” hikoyalari nasriy turga xos bo‘lib, bolalar adabiyotining go‘zal namunalaridan hisoblanadi.

Quyida nasriy turga mansub asarlardan hikoya matni ustida ishlash metodikasini ko‘rib o‘tsak.

Nasriy asarlar ko‘lamdorligi tufayli syujeti, kompozitsion tuzilishi, adabiy qahramonlar tizimi bo‘yicha qat’iy reja asosida o‘rganishni taqozo etadi. Asar tahlilida badiiy matn uning poetik xususiyatlarini o‘rganishdagina emas, tahlilning ifodali, adabiy, sharhli yoki ijodiy o‘qish, keng qamrovli, siyosiy, muammoli, tadqiqot, noan’anaviy usullardan foydalanganda ham asosiy manba bo‘lib hisoblanadi. Jumladan, asar syujeti, kompozitsiyasi, bosh qahramonlar timsolini o‘rganish bo‘yicha o‘tkaziladigan turli tipdagi tahlillar matn ustida ishlash asosida olib borilsa, o‘quvchilarning ijodiy faolligi oshadi, mustaqil fikrlash doirasi kengayadi.

Nasriy asarlar ustidagi adabiy-estetik tahlil o‘quvchining bilimini boyitsin, hissiyotiga cheksiz ta’sir ko‘rsatsin, aqlini charxlab, nutqini o‘stirsin. Buning uchun o‘qituvchi adabiy-estetik tahlil bilan bog‘liq vazifa va topshiriqlarning o‘quvchilar tomonidan aniq va to‘la tushunilishiga erishishi, beriladigan bilimlarning ular yoshiga mos bo‘lishini hamisha diqqat markazida tutishi lozim. Bu esa uzluksiz adabiy ta’limning barcha bosqichlarida o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, bilim darajalari va qiziqishlarini inobatga olgan holda matn ustida ishlashga tayyorlab borishni taqozo etadi. Negaki adabiy ta’limning bosh vazifasi o‘quvchilarning badiiy adabiyot namunalarini shunchaki o‘qib qo‘ya qolmasdan, balki ularning ruhiyatiga, sehrli olamiga chuqur kirish, his etish va anglashlariga erishishdan iboratdir.

Hikoya – epik tur janrlaridan biri. Kichik hajmli bu badiiy asar turi kishi

hayotidagi ma'lum bir voqeani tasvirlaydi va shu voqeaga qadar bo'lgan yoki undan keyin ro'y bergan voqealarni batafsil bayon etmaydi²³.

Demak, hikoya kichik hajmli badiiy asar bo'lib, unda kishi hayotidagi ma'lum bir voqea, hayotning muhim tomonlari umumlashtirib tasvirlanadi.

«Hikoya ko'pincha kishi hayotida bo'lgan bir epizodni tasvir etadi. Uning mazmuni ertakdagidan ortiqroq hayotiydir»²⁴.

Hikoya mazmunan boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mos janr hisoblanadi. Kichik yoshdagi o'quvchilarni qahramonlarning xatti-harakati, tashqi ko'rinishi, portret tasviri, voqea-hodisalar haqidagi hikoyalar ko'proq qiziqtiradi. Shuning uchun bolalarni hikoya bilan tanishtirish uning syujetini tushuntirishga bog'lab olib boriladi.

Boshlang'ich sinflarda hikoyani o'qishga bag'ishlangan izohli o'qish darslarida o'qilgan hikoya mazmunini ochish, lug'at ustida ishlash, o'qilgan matnni qayta hikoyalash kabilar asosiy ish turlaridan hisoblanadi. Hikoya mazmuni odatda savollar asosida tahlil qilinadi. So'roqlardan ikki maqsadda: hikoya mazmunini tahlil qilish hamda dalillar, mulohazalar, xulosalarni taqqoslash, voqea-hodisalar, xatti-harakat o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlash va umumlashtirish uchun foydalaniladi.

Hikoyani o'qish darsida o'quvchilar tushunmaydigan so'z va iboralar ma'nosini tushuntirish ham muhim, aks holda ular hikoya mazmunini tushuna olmaydilar.

Hikoyani o'qishda uning mazmunini tahlil qilish va shu asosda o'quvchilar nutqini o'stirish markaziy o'rin egallaydi. Hikoya o'qib bo'lingach, o'quvchilar o'ylashi, o'z mulohazalarini aytishi uchun tayyorlanishga vaqt berish kerak. O'qilgan asar yuzasidan beriladigan dastlabki savollardan maqsad hikoya bolalarga yoqqan-yoqmaganligi, undagi qaysi qahramonning xarakteri bolaga ta'sir etganini bilishdan iborat. Shundan keyingina hikoya syujeti, voqeaning yo'nalishini

²³ Хомидий Х. ва бошқ. Адабиётшунослик терминлари луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1967. – Б.274.

²⁴ Султон И. Адабиёт назарияси. - Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – Б. 45.

ochishga, personajlar xarakterini tushunishga, nihoyat, asarning asosiy g'oyasini bilib olishga yordam beradigan savollardan foydalaniladi.

Badiiy asarni tahlil qilishda syujetni to'liq tushuntirishga berilib ketib, qahramonlarga tavsif berish, asar qurilishi va tilini tahlil qilish kabi ish turlari e'tibordan chetda qolmasligi lozim.

Ertak janriga xos matnlar jozibadorligi bilan bolani o'ziga tortadi. Lekin hikoya janri ham hayotiyliги bilan o'ziga xos. Hikoyada voqealar tez rivojlanib boradi. Unda inson hayoti, u bilan bog'liq hayotiy lavhalar bayon etiladi. O'quvchilar qahramonlarning xarakteri, ulardagi xususiyatlar bilan qiziqadilar. Masalan, 3-sinf «O'qish» kitobida «*Dadam qurgan dengiz*» (Hakim Nazir), «*Olma*» (Malik Murodov), «*Ilmli ming yashar*» (Nurmat Maqsudiy), «*Xazonchinak*» (O'.Hoshimov), «*Qo'shtarak*» (A.Irisov), «*Mehnatkash qiz*» (Oybek) va boshqa qiziqarli hikoyalar berilgan. Ular mavzu jihatdan xilma-xil bo'lib, qahramonlarining xarakter-xususiyatlari bilan ham farq qiladi.

Hikoya biror bir davr bilan bog'liq bo'ladi. O'quvchilar qahramonlarning ma'naviyatiga bo'lgan qiziqishlari tufayli hayotning nurli va qorong'i tomonlari xususida muayyan tushunchaga ega bo'la boshlaydilar. Ularda go'zallik va nafosatga muhabbat, yovuzlikka nisbatan nafrat tuyg'usi hikoyalar bilan tanishish va uni tahlil qilish davomida shakllanib boradi. Masalan, 3-sinfda «*Jaloliddin Manguberdi*» hikoyasida Chingizxon va uning qo'shinlariga nisbatan nafrat uyg'otilsa, Jaloliddin Manguberding xatti-harakati misolida ona-Vatanga mehr-muhabbat uyg'otiladi, uning taqdiri orqali o'z ajdodlaridan faxrlanish tuyg'usi paydo bo'ladi.

Hikoya tahlili adabiy tur sifatida o'ziga xos xususiyatlari va vazifasidan kelib chiqib ish ko'rishni taqozo etadi. Undagi har bir so'z, ibora, gap yozuvchining fikrini ifodalashga xizmat qiladi.

Hikoya matni uning mazmunini yoki badiiy xususiyatlarini o'rganishdagina emas, tahlilning ifodali, adabiy, shartli yoki ijodiy o'qish, muammoli usullardan foydalanish uchun ham manba bo'lishi lozim.

Boshlang'ich sinflarda hikoya syujeti, kompozitsiyasi, qahramonlarini o'rganish bo'yicha turli tahlillar matn ustida ishlash asosida olib boriladi. Bunda o'quvchining ijodiy faolligi ortadi, ijodiy fikrlash doirasi kengayadi.

«Jaloliddin Manguberdi» hikoyasi qahramonlarini, ularning xatti-harakatlarini o'rganish va tahlil qilishni matnga tayangan holda quyidagi reja asosida amalga oshirish mumkin:

1. Chingizxonning hiyla ishlatgan o'rnini matndan topish. Uning o'quvchilarda qanday taassurot qoldirganligini aniqlash.

2. Jaloliddin Manguberding Eron va Afg'onistonda mo'g'ullarga qarshi kurashib, erishgan g'alabasi tasvirlangan o'rinni topib o'qish.

3. Lashkarboshilarning o'lja taqsimlashi oqibatida nima yuz berganini aniqlash. Bu o'rinni matndan topish.

4. Jaloliddin Manguberding jasorati yana qaysi o'rinda ko'ringanini aniqlash.

5. Chingizxon Jaloliddin Manguberdiga nima uchun tan berganini aytish.

Shundan so'ng o'quvchilar Jaloliddin Manguberdi haqida ongli fikr yuritadilar. Chingizxon bilan Jaloliddin Manguberding xatti-harakatlarini taqqoslab, farqlaydilar.

Hikoya mazmunini o'zlashtirish bo'yicha matn asosida quyidagicha ishlar amalga oshiriladi:

1. Matn mazmuni yuzasidan o'qituvchi savollariga javob berish.

2. Hikoya matni asosidagi savol-topshiriqlarni bajarish.

3. Hikoya mazmuni yuzasidan o'quvchilarning savollar tuzishi.

4. Hikoya mazmuniga mos rasmlar chizish.

5. Hikoya matnini qismlarga bo'lish.

6. Har bir qismga sarlavha topish.

7. Hikoyaga reja tuzish.

8. Reja asosida qayta hikoyalash (to'liq, qisqartirib va ijodiy qayta hikoyalash).

9. Reja asosida bayon yozish.

Tahlilda o'qilayotgan hikoya matnining tushunarligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tushunarlik deganda yozuvchi yaratgan badiiy olamning o'ziga xosligi, obrazli tasvirning o'quvchi hayotiy tajribasi, bilim darajasiga muvofiqligi nazarda tutiladi.

Hikoyani o'rganishda savollarni, odatda, o'qituvchi beradi, ammo asar mazmuni, qatnashuvchi shaxslarning xulq-atvorini ochish yuzasidan o'quvchilarga ham savol tuzdirish juda foydali. Bu usul bolalarga juda yoqadi va ishni jonlantiradi, asar mazmunini yaxshi tushunish, o'z fikrini izchil bayon qilish malakasini egallash, mazmun va voqealar orasidagi bog'lanishni to'liq esda saqlab qolishda o'quvchilarga yordam beradi.

Hikoyani izohli o'qish darsini quyidagicha reja asosida olib borish mumkin:

1. Hikoyani o'qishga tayyorlash (hikoyadagi kabi odamlar hayoti va davrga xarakteristika berish va boshqa.).

2. Hikoyani o'qish (bunda to'liq va ma'no jihatdan tugal qismni o'qituvchi yoki oldindan tayyorlangan o'quvchi ifodali o'qishi mumkin).

3. Lug'at ustida ishlash.

4. Idrok etishni tekshirish (qatnashuvchilarning xatti-harakatlari, shaxslar va voqealar o'rtasidagi munosabatlar, badiiy vositalar yuzasidan qisqacha suhbat).

5. Hikoyani qayta o'qish (qismlarga bo'lib, rollarga bo'lib o'quvchilarga o'qitish).

6. Hikoyaning har bir bo'limi (qismi) yuzasidan suhbat uyushtirish, hikoya rejasini tuzish.

7. Reja asosida qayta hikoyalash.

8. Hikoya asosida ijodiy va mustaqil ishlar.

9. Hikoyani ifodali o'qishga yoki sahnalashtirishga tayyorlanish (sinfda yoki uyda).

10. Hikoyani ifodali o‘qish va ifodali qayta hikoyalash²⁵.

Mahmud Murodovning “Olma” hikoyasi²⁶ni o‘quvchilarga tanishtirish yo‘llari bilan o‘rtoqlashsak.

I

Kuz. Yakshanba kuni edi. Uchinchi sinf o‘quvchilari olmazorga borishdi. Olmazor yonidagi tokzorda Quadrat ota toklarni chilpib yurgan ekan. “Kelinglar” – deb bolalarni xursand kutib oldi. Bolalar odob bilan otaga salom berishdi.

– Yashanglar, azamatlar, yashanglar. Olmalarga qaranglar, tagi bilan bitta bo‘lib to‘kilib yotibdi.

Bolalar otaning gapiga darrov tushunishdi. Ular qo‘llariga bittadan savatcha olishdi-da, olma terishga tushib ketishdi.

Ota o‘qtin-o‘qtin kelib, bolalardan xabar olib turdi. U so‘nggi marta kelganida:

– Yashanglar, azamatlar! – dedi. – Hammasini terib qo‘yibsizlar-ku! Rahmat, bolalarim.

– Yana bo‘lsa teramiz, – dedi Sodiqjon.

– Endi erta o‘tib, indin kelinglar. Aytganday, anavi qoracha o‘rtog‘inglar kelmadimi? Ismi Kamolmidi?

– Ha. Boshi ag‘rib qolibdi.

– E, attang! Shamollagandir-da, – dedi Quadrat ota bosh chayqab. So‘ng bolalarga:

– Olmadan olinglar, bo‘taloqlarim! – dedi.

– Uyimizda ham bor.

– Bor bo‘lsa ham olinglar. Mehnating singgani shirinroq bo‘ladi, – dedi Quadrat ota. Keyin talab-tanlab, har bir bolaga beshtadan olma berdi.

II

²⁵ Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2009. – B.115.

²⁶ Umarova M., Hamroqulova X., Tojiboyeva R. O‘qish kitobi. 3-sinf uchun darslik. – Toshkent: O‘zbekiston, 2012. – B.52-54.

Bolalar uylariga qaytishar ekan, Sodiqjon ularni to‘xtatib, bittadan olma oldi.

O‘zi ham bitta olma qo‘shib, ularni gazetaga o‘radi.

– Hozir buni Kamolga olib boramiz. Agar boshi og‘rib qolmaganda, u ham kelgan bo‘lardi. Olma terishardi, – dedi.

Bolalar birgalashib Kamolni ko‘rib chiqishdi. Kamolning buvisi ham, onasi ham bolalarning bir-biriga g‘amxo‘rligidan xursand bo‘lishdi. Kamol esa o‘zini tuzalib qolganday his qildi.

Matn o‘quvchilarga tanishtirilgach quyidagi ishlar olib boriladi:

Savol: “Hikoyadan nimalarni bilib oldingiz?”

Topshiriq: 1. “Hikoyaning ikkinchi qismini ovoz chiqarmay o‘qing va so‘zlab bering”.

2. Hikoya qismlariga mos sarlavha toping:

1) O‘quvchilar hasharga borishdi.

2) Bolalar bir-birlariga do‘st.

3. Hikoya mazmuniga mos reja tuzing.

Reja:

1. O‘quvchilar bog‘ga meva terishga chiqishdi.

2. Quddrat ota bolalarga ish ko‘rsatdi.

3. Kamol hasharga kelmadi.

4. Bolalar topshiriqni uddalashdi.

5. Kamol do‘stlaridan xursand bo‘ldi.

Uyga vazifa. Matndagi rasmdan foydalanib insho yozing.

Abdusodiq Irisovning “Qo‘shterak” hikoyasi²⁷ ham bo‘limdagi eng go‘zal hikoya namunasi sanaladi, unda tabiatni sevish, daraxt o‘tqazib bog‘ yaratishning foydali amallari tasvirlanadi.

I

²⁷ Umarova M., Hamroqulova X., Tojiboyeva R. O‘qish kitobi. 3-sinf uchun darslik. – Toshkent: O‘zbekiston, 2012. – B.66-67.

Boqi G‘azalkentda turadi. G‘azalkent bilan Toshkent orasida chiroyli baland bir tepalik bor. Tepalikning havosi toza va g‘ir-g‘ir shabada esar edi. Chunki uning etagida suv oqardi.

Bir kuni yo‘lovchi bir chol:

– Shu yerga bir tup daraxt ekilganida juda antiqa joy bo‘lar ekan-da! – deb qoldi. Boshqa odamlar ham unga qo‘shilib: “Ha, soz bo‘lardi”, - deyishdi.

Kuz keldi. Boqi o‘sha cholning gapini eslab qoldi. Ikki tup terak niholini olib, tepalikka borib, o‘tqazib keldi. Lekin buni hech kim ko‘rmadi. Teraklar tezda qad ko‘tardi. Oradan uch-to‘rt yil o‘tgach, bu tepalik “Qo‘shterak” deb yuritiladigan bo‘ldi.

II

Bir kuni Boqi shahardan qaytayotib, Qo‘shterakda dam oldi. Shunda bir chol yonboshlab o‘tirib: “Zap terak bo‘libdi-da, ekkanning otasiga rahmat. Bir kishi ekkandan ming kishi bahra olar ekan. Kim ekkan bo‘lsa ham, umri boqiy bo‘lsin”, – dedi. Boqi qulog‘igacha qizarib ketdi, ammo hech narsa demadi.

Xullas, tepalikka qo‘shterakni kim ekkanini hech kim bilmadi.

So‘ng bir dehqon “Qo‘shterak”ka ekin ekib, chayla qurib o‘tirdi. Kelgusi yili dang‘illama uy qurib, shu yerda qishlab qoldi. Keyin boshqa bir dehqon ko‘chib keldi. Bora-bora “Qo‘shterak” katta qishloqqa aylandi. Maktab, bolalar bog‘chasi, kutubxona va kasalxonalar qurildi. Idora paydo bo‘ldi. Ko‘chalaridan mashinalar qatnay boshladi. Birovdan “Qaerliksan?”, deb so‘ralsa, “Qo‘shteraklikman”, deydigan bo‘ldi.

Boqi bo‘lsa teraklariga zavq bilan boqar, teraklar bilan boshi ham ko‘kka yetayotgandek tuyulardi. Kishi bilmas yaxshi ish qilishning ham zavqi bor. Buni Boqiga o‘xshaganlar biladi.

1. “Qo‘shterak” nomi qanday yuzaga keldi?
2. Nima uchun Boqi teraklarni o‘zi ekkanligini aytmadi?
3. Siz Boqiga qanday baho berasiz?

Topshiriq. 1. Matndan o‘zingizga yoqqan qismini so‘zlang.

2. “Qo‘shterak”ning obod bo‘lishi haqida gapirib bering.

Hikoyaning har bir qismiga sarlavha qo‘ying:

- 1) Tepalik.
- 2) Qo‘shterak.

Matnni hikoyalash uchun ushbu rejani tavsiya etamiz.

Reja:

1. Tepalikda hech narsa o‘smas edi.
2. Mo‘ysafidning taklifi.
3. Boqi tepalikka terak ekdi.
4. Teraklar barq urib o‘ydi.
5. Hamma bog‘bonga rahmat aytmoqda.
6. Terakni kim ekkan?

O‘quvchilar katta hajmli hikoyani reja asosida hech qinalmay, uzviylikni buzmay qayta bayon eadilar. Bolalarning sezgirlikni oshirish uchun yoyiq rejani yig‘iq rejaga aylantirish ham yaxshi samara beradi.

Reja:

1. Tepalik.
2. Mo‘ysafid.
3. Terak ekildi.
4. Terak yashnadi.
5. Tashakkur.
6. Yaxshidan bog‘.

3-§. “Kuz manzarasi va mehnat” bo‘limidagi ertak va rivoyatlarni o‘qitishda reja tuzish va shu asosida hikoyalashdan foydalanish

Bo‘limda Feruza Jalilovaning “Qo‘riqchining sabog‘i” ertagi, “Bobur va kabutar” rivoyati keltirilgan.

Ertak – xalq og‘zaki ijodida keng tarqalgan janrlardan biri bo‘lib, to‘qima voqealarni tasvirlaydi va ba‘zan fantastik xarakterga ega bo‘ladi²⁸.

Xalq og‘zaki ijodida ertak janrining bolalar tomonidan yaxshi qabul qilinib, qiziqib o‘qilishining sabablaridan biri ertak tilining ta’sirchanligi, o‘tkirligi, ma’nodorligi va xalq tiliga yaqinligidir. Ertaklarning ko‘pchiligida real hayot tasviri sarguzasht elementlar bilan qo‘shilib ketadi.

Ertakning o‘tkir, maroqli syujeti, voqea rivojidagi favqulodda ajoyib vaziyat bolalarni maftun qiladi, undagi mard, kuchli, topqir, dovyurak, chaqqon qahramonlar, ertakning g‘oyaviy yo‘nalishi, unda ezgulik kuchining – yaxshilikning doimo g‘alaba qilishi bolalarni o‘ziga tortadi. Ertakda qabul qilingan hikoya qilish shakli bir xil so‘z va iboralarining qayta-qayta takrorlanib turishi, ohangdorligi, tilining ta’sirchanligi, ifoda vositalarining jonliligi, bolalar uchun juda qiziqarliligidir. Ertakda qatnashuvchilar ko‘pincha rahmdil, saxiy, adolatli hamda ularning aksi bo‘lgan yovuz, baxil, ochko‘z kishilar timsoli bo‘ladi.

Ertakning pedagogik qiymati shundan iboratki, o‘quvchilar unda to‘g‘rilik, halollik g‘alaba qilganidan, kambag‘al kishilar qiyinchilikdan qutilganidan, ya’ni yaxshilik, ezgulik ro‘yobga chiqqanidan va yomonlik, yovuzlik mahkumlikka uchraganidan quvonadilar. Ular hayotda ham doimo shunday bo‘lishini istaydilar. Masalan, «Halollik» ertagida (3-sinf) asosiy fikr kambag‘allarga yordam ko‘rsatish, o‘z mehnati bilan hayot kechirish bo‘lib, bu hatto butun xalq istagi ekanligi g‘oyasi ilgari surilgan bo‘lsa, «Hiylagarning jazosi» ertagida (4-sinf) soddadilning to‘g‘riligi hiylagarning makri ustidan g‘olib kelishi, xiyonat jazosiz qolmasligi g‘oyasi ilgari surilgan. Har ikki ertak ham to‘g‘riso‘zlilikning g‘alabasi bilan yakunlanadi. Bunday g‘alaba maishiy ertaklardan tashqari, sehrli ertaklarda ham ifodalangan.

Ertak bolalarda qahramonlarning xatti-harakatini muhokama qilib, baholash ko‘nikmasini o‘stirishi bilan birga yaxshilikning doimo g‘alaba qozonishiga ishonch uyg‘otadi. O‘quvchilar ertakni tahlil qilish jarayonida «Kishilardagi

²⁸ Хомидий Х. ва бошқ. Адабиётшунослик терминлари луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1967. – Б.256.

qanday sifatlar sizga yoqdi? (yoki yoqmadi?)), «Nima uchun?», «... nima uchun jazolandi? (yoki rag‘batlantirildi?)», «Nima uchun ertakdagi ba’zi qahramonlarga hatto tabiat kuchlari ham yordam beradi? (yoki ba’zilaridan yuz o‘giradi?)» kabi savollarga javob topish jarayonida mushohada qiladilar, muhokama qilib, xulosaga keladilar.

Boshlang‘ich sinflarda hayvonlar haqidagi ertaklar ko‘proq o‘qitiladi, «Chumoli va chivin» (Elbek), «Noahillik oqibati» (Hind xalq ertagi) kabi ertaklar aniq hayotiy hikoyalar tarzida o‘qitiladi va tahlil qilinadi.

Ertak matni ustida ishlashda tanlab o‘qish, savollarga javob berish, o‘quvchilarning o‘zlari ertak mazmuniga oid savollar tuzib, javob berishlari, reja tuzish, qayta hikoyalash, ijodiy davom ettirish, ertak aytish, qahramonlarni grafik tasvirlash kabi ish turlaridan foydalaniladi. Bunday ertaklarda hayvonlarning odatlari tahlil qilinadi, ammo ularni kishilar xarakteriga taqqoslash tavsiya qilinmaydi.

Maktab tajribasidan ma’lumki, kichik yoshdagi o‘quvchilar ertakdagi hayvonlar gapirmasligini, tulki va turna bir-birinikiga mehmonga bormasligini yaxshi biladilar, ammo ertaklar dunyosini hayotiy hikoya kabi qabul qiladilar. Ertakni o‘qib tahlil qilganda, barcha ishlar uning mazmunini yaxshi idrok etishga, syujet rivojini, qatnashuvchi personajlarning xatti-harakati, o‘zaro munosabatlarini to‘g‘ri tasavvur etishga yo‘naltiriladi. Bunda tanlab o‘qish va qayta hikoyalashning ahamiyati katta. Masalan, «Odobli bo‘lish osonmi?» (A.Obidjon) ertagining mazmunini o‘zlashtirish uchun quyidagi topshiriqlardan foydalanish mumkin:

1. Sichqonchaning onasi bilan qilgan suhbatini o‘qing. Sichqonchaning «Odobli bo‘lish uchun nimalar qilish kerak?» degan savoliga onasi qanday javob qaytarganligini so‘zlab bering.

2. Sichqonchaning Mushuk bilan uchrashgan holati aks ettirilgan o‘rinni topib o‘qing. Nima uchun «SHum Baroq» ko‘zidagi yovuzlik birdaniga so‘nadi?

3. Echki nima uchun Sichqonchani «Kam bo‘lma» deb duo qiladi? SHu o‘rinni topib o‘qing.

Ertakni tahlil qilishning oxirgi bosqichida «Ertakning sizga juda yoqqan joyini topib o‘qing», «Nima uchun aynan shu joyi yoqqanini ayting», «Hayotingizda ertakdagi voqealarga o‘xshash voqealar bo‘lganmi?» kabi savol-topshiriqlar yordamida o‘quvchilarning ertak xulosasini tushunishlariga erishiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari hayvonlar haqidagi ertaklardan tashqari, «*Davlat*», «*Ilm afzal*», «*Hiylagarning jazosi*», «*Hunarsiz kishi o‘limga yaqin*» kabi maishiy ertaklarni ham o‘qiydilar. Bunday ertaklarda xalq o‘z hayotini hikoya qiladi, shu sababli o‘quvchilar ertakni o‘qigach, o‘tmishdagi xalq hayotini, o‘y-fikrlari va orzu-istaklarini bilib oladilar.

Bunday ertaklarni tahlil qilish badiiy hikoya tarzida uyushtiriladi. Bolalar o‘qituvchi rahbarligida ertakda qatnashuvchilarning hulq-atvori, ayrim xatti-harakatlarini baholaydilar, ularning bir-birlariga bo‘lgan munosabatlarini aytadilar va shular asosida ayrim obrazlar haqida xulosalar chiqaradilar, ertak rejasini tuzadilar, ertakni rollarga bo‘lib o‘qiydilar.

Ertak ustida ishlashda bolalarni ertakni o‘qishgagina emas, balki uni aytib berishga o‘rgatish ham muhimdir. Ertak aytish og‘zaki nutqni o‘stiradi, bolalar nutqini yangi so‘z va iboralar bilan boyitadi.

O‘quvchilarni 1-sinfdayoq ertak tilidan erkin foydalanishga o‘rgatish uchun ertak bilan birinchi tanishtirishda uni o‘qituvchi aytib berishi mumkin.

O‘quvchi ertak mazmunini o‘zlashtirib olgandan so‘ng, uning tili ustida ishlashga alohida ahamiyat qaratilishi zarur. Ertak mazmunini qayta hikoyalashda, qahramonlarga tavsif berishda o‘quvchilarning o‘z nutqida til vositalaridan o‘rinli foydalanish talab qilinadi. Til vositalaridan foydalanish uchun talab va vaziyat, ehtiyoj yaratish zarur.

Ertak tilida shunday so‘z va iboralar borki, ular bolaga o‘zgacha ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, «Yo‘lbars, Tulki va Bo‘ri» ertagida «Tog‘ echkisi siz **ulug‘imizniki** bo‘lsin», «Quyon siz **podshohimizning** ertalabki **nonushtangiz** bo‘lsin», «Kiyik kechqurungi **taomingiz**, qo‘y kunduzgi **xo‘ragingiz** bo‘lsin» kabi

gaplar tarkibidagi ajratib ko'rsatilgan so'zlarga o'quvchilar diqqati qaratilib, ertakni so'zlab berayotganda ulardan nutqda foydalanishlariga erishish zarur.

Ertaklarda keltirilgan maqollar ustida ishlash, ularda ilgari surilayotgan g'oyalarni bolalar ongiga yetkazish, yod oldirish yo'li bilan bog'lanishli nutqni o'stirish, nutqning ta'sirchanligini oshirish lozim. Masalan, «*Rostgo'y bola*» (1-sinf) ertagida bola o'z rostgo'yligi bilan podshoga ma'qul bo'lganligi hikoya qilingan. Ertak g'oyasiga mos xulosa esa «Boshingga qilich kelsa ham to'g'ri gapir» maqoli bilan ifodalangan. O'quvchilar ushbu maqol mazmunini tushunib olishsa, o'zlari ham yuqoridagi kabi ertak tuzib, hikoya qilib berishlari mumkin.

So'z ma'nolari ustida ishlashda boshlang'ich sinf o'quvchilariga mos bo'lgan usullardan biri rasmdan foydalanishdir. Masalan, 2-sinfda «*Ko'ngilchan o'tinchi*» ertagida *qayin, eman, shumtol, zarang, zirk, tog'terak, qarag'ay, qayrag'och, chinor* kabi daraxt nomlari keltirilgan. Ularni bola ko'z oldiga keltira olmaydi. Ertakni o'qishdan oldin shu daraxt rasmlarini ko'rsatib, uning o'ziga xos xususiyatlarini izohlash va nomlarini aytish lozim. Shundan so'ng didaktik o'yin o'tkaziladi. Bunda daraxt rasmlari bolalarga bo'lib beriladi. Har bir o'quvchi o'ziga berilgan rasmdagi daraxtning nomini aytishi va ertakdagi shu daraxtning so'zini o'z so'zlari bilan aytib berishi kerak bo'ladi.

Shu ertakni o'qib, mazmuni bilan tanishtirilgach, o'quvchilardan *shaylanib, ro'parasida, sharbat, xayrli ish, xivchin, muhayyo* so'zlarining ma'nosi so'raladi. Javoblar to'ldiriladi, umumlashtiriladi.

Ertak matni bilan ishlash jarayonida unda qo'llangan badiiy vositalar: jonlantirish, metafora, mubolag'alar ustida ishlash ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi barcha fikrlarni hisobga olganda, ertakni o'rganish darslarining qurilishi quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Ertak bilan tanishtirish:

a) o'quvchilarni ertakni idrok etishga tayyorlash;

b) o'qituvchining ertakni ifodali o'qishi, yod aytib berishi va hokazo.

2. Ertakni o'quvchilar qay darajada idrok etganliklarini aniqlash maqsadida qisqacha suhbat o'tkazish;

3. Ertakni qismlarga bo'lib o'qish va tahlil qilish; undagi ayrim tasviriy vositalar, ma'nodosh so'zlarni topish, lug'at ishi (ayrim so'zlar ma'nosini tushuntirish);

4. Ertakni aytib berishga tayyorlanish (ichda o'qish);

5. Ertakni so'zlab berish;

6. Umumlashtiruvchi suhbat (Ertak g'oyasini ochish);

7. Ma'lum topshiriq asosida ertakni qayta o'qish (ijodiy va mustaqil ishlar);

8. Vazifani tekshirish va yakunlash;

9. Uyda ertakni o'qib (yoki aytib) berishga tayyorlanish²⁹.

Feruza Jalilovanning "Qo'riqchining sabog'i" ertagi³⁰.

Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Qadimda mehnatsevar, mirishkor bir dehqon yashagan ekan. Poyonini ko'z ilg'amas dalasida uzzukun mehnat qilarkan. Yetishtirgan qovun-tarvuzlar-u karamlariga kishining qulochi bazo'r yetarkan.

Bir kuni tushlik qilib dalasiga qaytsa, polizga "o'g'ri" oralabdi. O'g'ri kim ekan deysizmi, shu yaqin atrofdagi o'rmonda yashovchi jajji tipratikan va quyonchalar ekan.

Dehqonning jahli chiqibdi, ularga kesak otib, quvlabdi. "Xo'sh, sen qayoqqa qarayapsan?" deya o'dag'aylabdi polizga tikilgan jonsiz qo'riqchiga qarab...

Shu yili dehqonning dalasidagi ekinlar kasallikka chalinib, bor hosili nobud bo'libdi. Uning erta bahordan kech kuzgacha qilgan mehnatlari zoe ketibdi. Xafa bo'lib, uxlab qolibdi va g'alati bir tush ko'ribdi. Tushida poliziga tutash o'rmonda kekxa bir donishmand tipratikan yasharmish. U jajji quyonchalar va tipratikanlarni bir yerga to'plab, nasihat qilarmish. Karam, sabzi yegisi kelib polizga ketayotgan jonivorlarga: "Ekinlarni payhon qilib tashlamanglar, isrof qilmanglar, bobodehqon

²⁹ Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2009. – B.109.

³⁰ Umarova M., Hamroqulova X., Tojiboyeva R. O'qish kitobi. 3-sinf uchun darslik. – Toshkent: O'zbekiston, 2012. – B.57-58.

ranjiydi”, deya tayinlarmish.

Dehqonning tunov kuni jahl bilan otgan kesagi mittigina quyonchaning oyog‘ini mayib qilgan ekan. Quyoncha tipratikanga: “Biz axir ekinlarni payhon qilmasdan, aytganingizdek, Bir donagina sabzini hammamiz baham ko‘rayotgandik-ku”, deya zorlanayotganmish.

Shu payt qarshisida dalasidagi jonsiz qo‘riqchi paydo bo‘libdi va tilga kiribdi:

– Dehqon bobo, siz juda mehnatkash insonsiz. Lekin biroz ziqnasiz-da. Bir donagina sabzingizni mitti jonivorga ravo ko‘rmadingiz-a? Oyog‘i singan quyonchaning ahvolini ko‘rdingizmi? – debdi.

Jonsiz, hissiz bir qo‘riqchidan ta’na eshitgan dehqon rosa mulzam bo‘libdi...

Bu voqealar tushida sodir bo‘lsa-da, u o‘ziga tegishli xulosa chiqarib olibdi. Savatchaga poliz mahsulotlaridan solib, o‘rmonga elitib qo‘yadigan odat chiqaribdi. Bundan buyon qo‘li ochiq, saxovatli inson bo‘lishga so‘z beribdi.

- 1.Nima uchun dehqonning jahli chiqibdi?
- 2.Dehqon tushida nimalarni ko‘ribdi?
- 3.Dehqonning mulzam bo‘lish sababini so‘zlang.
- 4.Dehqon qanday xulosa chiqaribdi?

Ertak savol-javob va ifodali o‘qib chiqilgandan so‘ng qayta bayonni tartibli olib borish uchun quyidagi rejani taklif etamiz.

Reja:

1. Dehqonning qattiq jahli chiqdi.
2. Dehqon quyonchaning oyog‘iga shikast yetkazdi.
3. Dehqon tush ko‘rdi.
4. Quyonchaning tipratikanga zorlanishi.
5. Qo‘riqchining dashnomlari.

Zahriddin Muhammad Bobur hayotiga oid “Asotirlar va rivoyatlar”dan

olingan “Bobur va kabutar” matni³¹ berilgan. Rivoyatning mazmuni quyidagicha:

Bobur va kabutar

Mirzo Bobur yoshligidan ziyrak bola bo‘lib o‘tibdi. Bir kuni uning otasi Umarshayx saroy a‘yonlari bilan qasrda o‘ltirgan ekan. Bir kabutar uchib kelib ayvon peshtoqiga qo‘nibdi-da: “G‘ulu-g‘ulu-g‘u-g‘u” qilaveribdi. Umarshayx a‘yonlaridan: “Kabutar ne deydu?” – deb so‘rab qolibdi. A‘yonlar anchadan beri urush ko‘rmay, qilichlari qonsirab qolgan ekan. Ular: “Oliy hazrat, kabutar qilichlarni qindan sug‘urmoq kerak”, – deydu deb javob berishibdi.

Gapga aralashmay bir chekkada jim o‘ltirgan Mirzo Bobur: “Yo‘q, kabutar unday demaydu, ota, u qovun sayliga chaqiribdu. Jonivor xushxabar keltiribdu”, – debdi.

Umarshayx kabutarni tutib keltirishni buyuribdi. Kabutarni tutib kelishibdi. Uning oyog‘idagi mis halqani olib qarashsa, ichidan bir xat chiqibdi.

Xatda:”Oliy hazrat, qovun ayni pishdi. Kelib qo‘l urib bersalar”, – deb yozilgan emish. Mirzo Boburning gapi to‘g‘ri chiqqanidan hayratga tushgan Umarshayx o‘g‘lidan: “Bunchalik topqirligingga bois nedu?” – deb so‘rabdi.

“Ota, bu kabutarga e‘tibor qimadingiz. O‘tgan yili qovun sayli xushxabarini xuddi shu jonivor olib kelgan edi. Kaminaning ko‘zi kabutarning o‘ng qanotidagi qora xolga tushgan erdi. Shu zahoti ani tanidim va shu so‘zni taxmin etdim”, – deb javob beribdi.

Yosh Mirzoning hushyorligi, topqirligiga qoyil qolgan Umarshayx a‘yonlarga qarab: “Qilichni emas, aql-idrokni ishga solmoq lozimdir,” – debdi.

Matn o‘qituvchining ifodali hikoyasi va uch abzasni ifodali o‘qishi bilan boshlash maqsadga muvofiqdir. Matn o‘qib chiqilgach, matndagi qiyin so‘zlar izohi beriladi. Qiyin so‘zlarni o‘qituvchi o‘quvchilardan so‘ragini ma‘qul. O‘quvchilar bilganlaricha o‘z javoblarini bersalar, o‘qituvchi albatta, to‘ldirishi lozim. Matndagi saroy a‘yonlari, ayvon peshtoqi, kamina so‘zlari izohlanadi.

³¹ Umarova M., Hamroqulova X., Tojiboyeva R. O‘qish kitobi. 3-sinf uchun darslik. – Toshkent: O‘zbekiston, 2012. – B.60-61.

Shundan so‘ng quyidagicha savol va javob o‘tkaziladi:

1. Umarshayx a‘yonlardan nimani so‘radi?
2. A‘yonlar nima deb javob berishdi?
3. Boburning ziyrakligini nimada ko‘rasiz? Matndan shu o‘rinni toping.
4. “... qilichlar qonsirab qolgan” iborasini qanday tushunasiz?

Savol va javob o‘tkazilgach, asar tilida uchragan eski turkiy til namunalarini keltirib, o‘quvchilarga sharhlatiladi: o‘ltirgan ekan, ne deydur, chaqiribdur, keltiribdur, bois nedur.

Rivoyat matni shundan so‘ng tanlab o‘qitiladi. Chunki sinfdagi barcha o‘quvchilar matnni hali ifodali o‘qishga tayyor emas. Uch-to‘rt o‘quvchiga asar tanlab o‘qitilgach, matnga sarlavha toptiriladi. O‘quvchilar o‘zlarining “Ziyrak bola”, “Dono javob”, “Aql – inson bezagi” kabi sarlavhalarini taklif etadilar. Eng ma’qul sarlavhani albatta, o‘qituvchi tanlagani maqsadga muvofiqdir.

Sarlavha topilgach, bolalarga musobaqa asosida ifodali o‘qishni tashkillash kerak. Bolalar bu ish turini juda xursandlik bilan kutib oladilar, negaki bu yoshdagi bolalarda ochiq maydonda jang – musobaqa olib borish juda yoqadi-da.

Shundan so‘ng bolalar bilimini tartibga solish maqsadida reja tuzdirib ko‘rish kerak.

Reja:

1. Kabutarning xushxabar olib kelishi.
2. Kabutar tashrifiga a‘yonlarning munosabati.
3. Boburning dono fikri.
4. Hamma lol-u xayron.

O‘quvchilar yuqordagi reja asosida asarni qayta bayon qiladilar. Qayta bayonda o‘quvchilar hikoyani tartib bilan olib boradilar.

Yuqoridagi yoyiq rejani atov gap sharlidagi yig‘iq rejaga aylantirib borish o‘quvchilarning hikoyalashlarida yangi reja turi bilan ishlashga o‘rgatadi.

Reja:

1. Xushxabar.

2. A'yonlar fikri.

3. Ziyraklik.

4. Xayronlik.

Boshlang'ich ta'limda bunday yig'iq reja doimo yoyiq reja asosida tuzdiriladi. O'quvchilar yuqori sinflarga o'tganlari sayin rejaning yig'iq turini ko'proq ishlatishga kirishadilar.

4-§. “Kuz manzarasi va mehnat” bo‘limidagi ilmiy-ommabop asarlarni o‘qitishda reja ustida ishlash vositalari

“Kuz manzarasi va mehnat” bo‘limdagi “Oltin kuz” va Malik Murodovning “Mehrjon sayli” matni ilmiy-ommabop turga mansub. Boshlang'ich sinflarning «O'qish kitobi» darsliklarida turli xususiyatga ega bo'lgan ilmiy-ommabop maqolalar mavjud. Ilmiy-ommabop maqolalarda kuzatishlar orqali aniqlangan va umumlashtirilgan asosli dalillar o'z ifodasini topgan. Shuning uchun ham bunday maqolalarda fikr yuritilgan voqea-hodisalarni faqat o'qishgina emas, ularni o'quvchilarga o'rgatish maqsadga muvofiqdir. Turli narsa, voqea va hodisalarni o'rgatishning qulay usuli ko'rgazmalilikdir. Maqolani o'qishdan oldin yoki o'qilganidan keyin uning g'oyasiga muvofiq, holda ekskursiyalar o'tkazish, turli jadval va suratlar ko'rsatish, tajriba ishlari olib borish o'quvchilarga puxta bilim berish shartidir. Bu ishlarni tashkil etishda o'rganiladigan maqolaning oldin o'rganilgan va keyin o'rganiladigan maqolalarga bog'liqlik tomonlari ham hisobga olinadi. Agar o'rganiladigan maqola oldin o'rganilgan maqolaga bog'liq, uning davomi tarzida bo'lsa, o'quvchilarning mustaqil ishlariga keng o'rin beriladi. Maqolada mutlaqo yangi fikrlar yoritilayotgan bo'lsa tushuntirish, ko'rgazmalilik masalalariga alohida e'tibor beriladi. Bundan tashqari maqola qaysidir bir yo'nalishda bo'lishi mumkin.

Tabiatshunoslik va geografiyaga oid maqolalarni o'qish orqali o'quvchilar bilimlarni o'zlashtirish bilan bir vaqtda dunyoqarashlari ham tarkib topib boradi. Masalan, atrof-tabiatni o'rganish va tabiatshunoslikka oid maqolalar o'qish

natijasida o'quvchilar tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlarni bilib boradilar. Tabiatning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish natijasida undan foydalanish va o'simlik hamda hayvonot dunyosini takomillashtirish yullari belgilanadi. Tabiatshunoslikka oid bilimlar kishilar salomatligini saqlash uchun ham muhimdir.

O'quvchilarda bu maqolani o'qish orqali nihol o'tkazish va uni parvarish qilishga ishtiyoq paydo bo'ladi. Ko'cha va bog'lardagi nihollarni asrash, hech bo'lmaganda ularga shikast yetkazmaslikka harakat qiladilar.

Tabiatni o'zgartirishga oid turli maqolalarni o'qish o'simlik va poliz ekinlarining serhosil va sifatli navlarini yaratish, chorvachilik va bog'dorchilikka oid maqolalar, texnika vositalaridan keng foydalanish haqidagi maqolalar bolalarda ona-Vatan, Vatanimiz kishilari, xalq xo'jaligini yuqori ko'tarish uchun qayg'urayotgan mehnatkashlarga mehp-muhabbat uyg'otadi. Dehqonchilikka oid maqolalarni o'qish xo'jalik uyushmalari va maktab yer maydonini kuzatish bilan bog'lab boriladi. Buning natijasida o'quvchilar bilimlarini hayotga bog'lash va amaliy foydalanishga o'rganadilar.

Jug'rofiyaga oid maqolalarni o'qish orqali o'quvchilar Vatanimizning turli joylarida yashaydigan kishilar hayotini o'rganishga qiziqib qoladilar.

O'quvchilarda vatanparvarlik hissiyotlarini qo'zg'ash tarixiy maqolalar o'qishning ahamiyati kattadir. Bunday maqolalar barcha sinflarda o'qiladi.

Ilmiy-ommabop maqolalarni o'qish sinfdan sinfga o'tgan sayin takomillashib boradi.

Birinchi sinfdan maqola mazmunini aniqlashga oid savollar ko'p beriladi. Ikkinchi, uchinchi sinflarda o'quvchilarga beriladigan savollar kamayadi. Chunki, o'quvchilar bilimi qanchalik takomillashib borsa, ularga kamroq va qisqa savollar beriladi. Ularning javoblari esa keng va mukammal bo'ladi. O'quvchilar mustaqil ishi ham sinfdan sinfga sayin takomillashib boradi. Birinchi sinfdan o'quvchilar asosan o'qituvchi rahbarligida o'qiydilar.

Ikkinchi sinf o'quvchilari osonroq maqolalarni mustaqil o'qiydilar. Bu sinf o'quvchilari o'qituvchi bergan savollar va darslikning o'zida berilgan

savollardan foydalanib mustaqil fikr yuritishga harakat qiladilar. Uchinchi sinf o'quvchilari dastlabki tayyorgarlik ishlaridan keyin o'zlari mustaqil o'qiydilar. Bu sinf o'quvchilari mustaqil savollar va maqola rejasini tuzishlari ham mumkin.

Birinchi, ikkinchi sinflarda maqola rejasini tuzish ishlari o'qituvchi tomonidan bajarilib, so'roq gaplardan ibrat bo'ladi.

Keyingi sinflarda o'qituvchi rahbarligida o'quvchilar maqola rejasini tuzishga kirishadilar.

Birinchi, ikkinchi sinf o'quvchilari maqolani to'la o'qib bo'linganidan keyin tushunchalarini umumlashtirib gapira oladilar. Keyingi sinflarda asosiy fikr ifodalaydigan o'rinlarini qisqa gapirishga o'rganib boradilar. Ana shularni hisobga olgan holda ilmiy-ommabop maqola o'qiladigan darslarni quyidagicha uyushtirish mumkin:

1. Maqolani o'qishga tayyorgarlik ishlari.

Ilmiy-ommabop maqolani o'qishdan oldin o'qituvchi o'quvchilarga ana shu maqolada fikr yuritilgan masalalar yuzasidan dastlabki tushunchalar beradi. O'quvchilarga o'zlari biladigan dalillarni eslatib, ilgari o'zlashtirgan bilimlariga asoslanib tushuntirilsa, ular oson va tez o'zlashtiradilar. Masalan, yil fasllariga bag'ishlangan hamda ayrim shahar va qishloq haqidagi maqolalarni o'qishdan oldin o'quvchilarning shu haqidagi fikrlarini eshitish va to'ldirish maqsadga muvofiqdir. Agar o'rganiladigan maqola mazmunida o'quvchilarga mutlaqo notanish bo'lgan narsa va voqealar haqida fikr yuritilayotgan bo'lsa, u holda o'sha narsa yoki hodisa suratini ko'rsatib shu asosda suhbat o'tkaziladi. Masalan, qurilish haqidagi maqola o'qiladigan bo'lsa, bolalarni xayolan qurilishga ekskursiya qildirish, qurilish bo'layotgan joy, u yerdagi qurilish asboblari va manbalarni so'z bilan o'quvchilar ko'z oldiga keltirish zapyp. Shunga erishish kerakki, o'quvchilar o'zlarini qurilish maydonida yurganday his qilsinlar. Bu o'rinda yana qurilishga oid ko'rgazmali qurollar bo'lsa, ulardan ham foydalanish mumkin. Ko'rgazmali qurollar asosida yanada kengroq tushuntirish imkoniga ega bo'lamiz. Qurilishda ishlaydigan asboblari, turli manbalar nomini tushuntirish,

lugʻat ishi oʻtkazish zarur. Oʻquvchilarning lugʻat daftarlariga ayrim soʻzlar yozdirib quyiladi. Umuman, ifodali nutq oʻquvchilarga namuna – koʻrgazma vazifasini bajaradi. Agar kirish mashgʻulotida oʻquvchilarning oʻzlariga kuzatishlari, tajribalari haqidagi fikrlarini gapirtirilsa, yanada foydaliroq boʻladi. Oʻqituvchi gapirayotganda savol-javob tarzida soʻzlasa, oʻquvchilarga tushunarli tuyuladi.

Odatda oʻquvchilar yangi, hali oʻzlariga maʼlum boʻlmagan narsalarni ilgari koʻrgan va biladigan narsalariga taqqoslash orqali aniqalaydilar. Masalan, boʻrini itga, tulkini mushukka taqqoslashlari mumkin.

Kuzatish va tajribalardan maʼlum boʻlishicha, maqola oʻqish darslaridagi koʻrgazmalilik oʻqishning ongli boʻlishiga yordam beradi. Chunki koʻrgazmali suhbat davomida fikr yuritilgan ayrim soʻz va iboralar bir necha marta takrorlanadi.

2. Lugʻat ishi.

Maqolani oʻqishdan oldin undagi oʻquvchilarga notanish ayrim soʻz va turli iboralarini doskaga yozib, ularning maʼnosini izohlanadi. Chunki, oʻquvchilar maʼnosiga tushunmagan soʻzlarini albatta xato oʻqiydilar. Buning oqibatida gapning maʼnosini tushunmaydilar. Shuning uchun lugʻat ishi oʻtkazishning eng qulay va sodda turlaridan foydalanib, oʻquvchilarga oʻqitishdan oldin ularga notanish soʻzlar tushuntirilishi zarur.

3. Maqolani dastlabki oʻqish.

Ilmiy-ommabop maqolalar asosan qismlarga boʻlib oʻqiladi. Chunki maqolaning hammasini oʻqishdan koʻra qismlarga boʻlib oʻqilganda uning mazmuni tushunarli boʻladi. Ikkinchi sinfda oʻquv yilining ikkinchi yarmidan boshlab maqolani dastlabki oʻqishdanoq oʻquvchilarga mustaqil oʻqishni tavsiya etish mumkin.

Faqat ayrim murakkab maqolalarnigina oʻqituvchi tomonidan oʻqib beriladi. Bunday murakkab maqolalarni oʻqituvchi oʻqib berganidan keyin

o‘quvchilar mustaqil o‘qiydilar. Mustaqil o‘qib chiqqanlaridan so‘ng esa qismlarga bo‘lib, tugal ma’no ifodalaydigan qismlar bo‘yicha o‘kuvchilarga o‘qitiladi.

4. Maqola mazmuni yuzasidan suhbat.

Maqolaning har bir qismi o‘qilganda o‘qituvchi uning mazmuniga moslab savollar beradi. O‘quvchilar o‘z so‘zlari (kitob so‘zlari bilan emas) javob qaytaradilar. O‘quvchi savolga javob qaytarishda qiynalsa, shu savolga javob bo‘ladigan gaplarni kitoblaridan topib o‘qishlari ham mumkin.

O‘quvchilar qobiliyatiga qarab savollarni kamaytirish yoki ko‘paytirish mumkin. Berilgan savolga o‘quvchilardan biri javob qaytarsa, ikkinchi bir o‘quvchi uni to‘ldiradi. Buning uchun har bir savolga qaytarilgan javob muhokama qilinadi. Muhokamada o‘quvchining javobi to‘liq deb hisoblansa, o‘rtoqlari qo‘shimcha qilmaydi, kamchiligi bo‘lsa to‘ldiradi.

Maqolani o‘qish va mazmunini tahlil qilish bilan bir vaqtda undagi o‘quvchilarga tushunarli bo‘lmagan so‘zlar va ayrim iboralar tushuntirib boriladi. Shuningdek, o‘qishdan oldin izohlangan so‘z va iboralarni o‘quvchilar qanchalik tushunganliklari tekshirib ko‘riladi. Maqola mazmunini aniqlashda darslikning o‘zida berilgan turli rasm va jadvallardan foydalanish ham yaxshi natija beradi.

5. Maqola rejasini tuzish.

O‘quvchilar tushunchasini mustahkamlash maqsadida masalaning o‘qilgan qismi mazmunini gapirtirib ko‘rilganidan keyin ana shu qismiga kichik sarlavha topish bilan shug‘ullanish mumkin. Topilgan sarlavhalar doskaga yoziladi. O‘quvchilar qobiliyatiga qarab hajmi kattaroq maqolalarning rejasini tuzish mashqlari o‘tkaziladi. Ikkinchi sinflarda maqolaga tuzilgan reja so‘roq gaplardan iborat bo‘ladi. Bu sinfda maqola rejasini o‘quvchilarga tushuntirib va savol-javoblar asosida o‘qituvchining o‘zi tuzadi.

Darslikning 51-52- betlarida “Oltin kuz” nomli ilmiy-ommabop matni berilgan.

Oltin kuz³²

Kuz... Ona diyorimizga oltin kuz sepini yoygan. Kechalari salqin. Ertalab shudring tusha boshlaydi. Tog‘lardagi qoyalarda qirov. Paxta dalalarining ko‘rinishi o‘zgacha. Lo‘pi-lo‘ppi ochilgan paxtalar quyosh nurida toblanadi. Bu manzara kuz kelganidan darak beradi.

Kuzning birinchi oyida nok, olma, shaftoli, uzum, anjir va anorlar g‘arq pishadi. Sabzavotlar, qovun-tarvuz serob bo‘ladi. Yig‘im-terim ishlari boshlanadi.

Tuyoqli jonivorlarning hayotida ham o‘zgarish bo‘ladi. Ular ko‘k o‘tlar bilan birga don ozuqasi, yovvoyi urug‘lar, mevalarni iste’mol qiladilar. Bu ularning qishga ko‘p kuch to‘plab olishiga yordam beradi.

Kuz kelib, havo soviy boshlaganda, tunalar, chug‘urchuqlar, qaldirg‘ochlar, uzunqanotlar, ko‘kqarg‘alar yurtimizdan issiq tomonlarga uchib ketadi.

1. Maqolani o‘qishga tayyorgarlik ishlari.

O‘qituvchi mavzuni e‘lon qilib, sana va mavzuni o‘quvchilar daftariga yozdiradi. O‘quvchilarga kuz tabiatining go‘zalligi qisqa hikoyalanadi. Ob-havo, tabiatdagi, qushlar va hayvonlar hayotidagi o‘zgarishlar bayon etiladi. O‘quvchilar kuzdagi o‘zgarishlarni bahor va yozdagi tabiat o‘zgarishlariga taqqoslaydilar. O‘zlarining mahalla va qishlog‘idagi o‘zgarishlarni shaxsiy qarashlari asosida hikochlaydilar.

2. Lug‘at ishi.

Matndagi “kuz sepi”, “don ozuqasi” so‘zlari matnni o‘qishdan avval izohlansa, matn o‘qilgach o‘quvchilardan ma’nosini tushunishga qiynalgan so‘zlari so‘rab izohlanadi.

3. Maqolani dastlabki o‘qish.

“Oltin kuz” matnining birinchi abzasi o‘qituvchi tomonidan, 2-4-qismlari o‘quvchilar tomonidan tanlab o‘qitiladi.

4. Maqola mazmuni yuzasidan suhbat.

³² Umarova M., Hamroqulova X., Tojiboyeva R. O‘qish kitobi. 3-sinf uchun darslik. – Toshkent: O‘zbekiston, 2012. – B.51-52.

Matnning mazmunini o‘qituvchi dastlab matnga yaqinlashtirib hikoya etadi, so‘ngra quyidagicha savol va javob uyushtiriladi:

1. Matnda kuzning birinchi oyi haqida nima deyilgan?
2. Kuzda tuyoqli jonivorlar hayotida qanday o‘zgarish bo‘ladi?
3. Qaysi qushlar issiq tomonlarga uchib ketadi?
4. Matndan kuz manzarasiga oid parchani toping va o‘qing.

“Xalq og‘zaki ijodi” bo‘limidan matn mazmuniga mos topishmoq tanlang va ayting.

Matn mazmuniga mos dalillarni quyidagicha keltirish ancha maqsadli sanaladi.

Turnalar barvaqt uchib kelsa, bahor erta boshlanadi. Bordi-yu, turnalar kuzda baland uchsa, kuz uzoq davom etadi.

5. Maqola rejasini tuzish.

Reja:

1. O‘lkamizga oltin kuz kirib keldi.
2. Meva va sabzavotlar g‘arq pishdi.
3. Hayvonlar qishga tayyorgarlik ko‘rishmoqda.
4. Issiqsevar qushlar o‘lkamizdan uchib ketdi.

Ilmiy-ommabop matnlarni o‘quvchilar tomonidan qayta hikoyalashlari uchun eng maqbul vosita reja asosida hikoyalashdir. Bunday matnlarni o‘quvchilardan to‘liq hikoyalash talab etilmagani uchun reja asosida hikoyalash ishning tartibli, ketma-ket borishini ta’minlaydi.

Darslikda Malik Murodovning “Mehrjon sayli” matni³³ ham ilmiy-ommabop maqola sanaladi.

Mehrjon bilan Navro‘z o‘zbeklarning eng go‘zal, eng tarovatli bayram sayllaridan hisoblanadi. Chunki ular xalqchil, hayotiy an‘analardir.

³³ Umarova M., Hamroqulova X., Tojiboyeva R. O‘qish kitobi. 3-sinf uchun darslik. – Toshkent: O‘zbekiston, 2012. – B.56.

Navro‘z bahor kirishi, qishning ayozli kunlaridan uzil-kesil qutulib, yangi kun, yangicha hayotning boshlanishini nishonlash bayramidir.

Mehrjon esa hosil ko‘tarib, qishga tayyorgarlik ko‘rishdir, to‘kin-sochinlikka shukronalik, hayotga muhabbat ramzidir.

Xalq kuzgi bayram saylining nomini “Mehrjon” deb bilib qo‘ygan. U dehqon yil bo‘yi qilgan mehnatining lazzatini totib ko‘rayotgan paytda – 25-sentabrga o‘tar kechasi nishonlanadi.

Abu Rayhon Beruniy so‘zi bilan aytganda, Quyosh va Oy falakning ikki ko‘zi bo‘lganidek, Navro‘z va Mehrjonham zaminning ikki ko‘zidir.

1.O‘zbeklarning qanday an‘analarini bilasiz?

2.Mehrjon sayli qaysi paytda nishonlanadi?

Topshiriq. Navro‘z bilan Mehrjon saylining farqini ayting.

Matnni qayta hikoyalashga quyidagi rejani tavsiya etamiz.

Reja:

1. Navro‘z – bahor bayrami.

2. Mehrjon shukronalik belgisi.

3. Beruniy Mehrjon haqida.

Matn tahlilidan so‘ng quyidagi maqol va topishmoqlar asosida o‘quvchilarning bilimini kengaytirish hamda nutqini o‘stirish mumkin.

Maqol. Mehnating – zeb-u ziynating.

Mehnat qilgan xor bo‘lmas.

Topishmoq. Beqasamdan to‘ni bor,

Ichi qizil lolazor. (Tarvuz).

Uzoqdan qarasam, yaltir-yultir,

Yoniga borsam, qulf-u zanjir. (Anor).

Dum-dumaloq cho‘tir tosh,

Ichi to‘la moyli osh. (Yong‘oq)

Xulosa. “Kuz manzarasi va mehnat” bo‘limidagi asarlar ustida ishlashning ma’naviy-axloqiy ahamiyati

O‘quv mashg‘ulotlarini yangi zamonaviy shakl va usullarda tashkil qilish, o‘quvchilarni dars jarayonida maqsadni boshqara olish o‘qituvchilik faoliyatining bosh mezonini deb qaralmoqda. Ilg‘or pedagogik texnologiyaga asoslangan zamonaviy dars turlari va shakllarini qo‘llash, o‘quvchining ta’lim jarayonidagi o‘rni, unga yangicha yondashuv, yangicha munosabatni ta’minlash, mazkur jarayonni mohirlik va idrok bilan boshqarish demakdir.

Mustaqillik tufayli yuz berayotgan hozirgi yangilanishlar, jamiyatimiz taraqqiyoti va istiqboli, ta’lim sohasidagi islohotlar umumjahon andozalariga mos keladigan, zamon talablariga javob beradigan, yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash bilan chambarchas bog‘liq.

O‘quvchilarni to‘g‘ri, tushunib va ifodali o‘qishga o‘rgatish, o‘qish darslarida tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish maktabning barcha bosqichlarida xam muhim vazifalaridan biri hisoblangan.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining to‘g‘ri tushunib va belgilangan me’yorda ifodali o‘qish malakalari yaxshi rivojlansa, ta’limning keyingi bosqichlarida muvaffaqiyatlarga erishadilar. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga o‘qishni o‘rgatish ularga tarbiyaviy ta’sir etish bilan bog‘liq holda amalga oshiriladi.

Istiqlol yillarida respublikamiz ta’lim tizimini nafaqat shaklan, balki mazmunan isloh qilish va taraqqiyot bosqichini amalga oshirish, ta’limning izchillik va uzviyligini ta’minlash, ta’lim turlarida o‘qitishning yangi metodlarini ishlab chiqish, darslarda ilg‘or pedagogik va zamonaviy vositalarni keng qo‘llash kabi jiddiy masalalarni hal qilishiga alohida e’tibor berilmoqda. Ta’lim tizimini jahon miqyosida obro‘-e’tiborini yanada oshirishda «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to‘g‘risida»gi singari muhim hujjatlarda belgilangan chora-tadbir va ko‘rsatmalarning xizmati katta

bo‘lmoqda. Mazkur hujjatlarda o‘quv yurtlarini bitiruvchilar oldiga katta talablar qo‘yilmoqda hamda komil inson bo‘lib yetishishlari uchun shart-sharoitlar yaratilmoqda. Jumladan, bo‘lg‘usi mutaxassislarning keng dunyoqarashga, chuqur bilimga, talab darajasidagi malaka va ko‘nikmalariga ega bo‘lishi alohida e‘tirof etilmoqda. Ma‘lumotli mutaxassislarning og‘zaki va yozma nutqiy tayyorgarligiga ham e‘tibor berilmoqda. Mustaqilligimiz qurilishning dongdor kishilari, shonli Vatanimiz fani va san‘atining mashhur namoyondalari va boshqalar hayotidan olingan materiallar va biografik ocherklar, o‘zbek kishilarining qahramonona mehnati, botirligi, jasurligi va fidokorligini o‘zida aks ettirgan badiiy asar va ilmiy ommabop maqolalar o‘quvchilarda bayon yozishga zavq-shavq uyg‘otadi. Ma‘lumki, tasviriy xarakterdagi matnlar rivoya turidagi matnlarga nisbatan qiyinroqdir. To‘rtinchi sinflar uchun matnlar tanlashda bu qiyinchiliklarni, bu matnlarning bolalar yoshiga mos yoki mos emasligini, g‘oyaviy, mavzu-mazmunini, hajmini, leksik tuzilishini, janr xususiyatini nazarga olish kerak. IV sinf uchun tanlanadigan matnlar syujetli hikoyalar yoki badiiy asardan olingan kichik parchalar bo‘lishi ma‘quldir.

Jamiyatning taraqqiyoti sog‘lom aqlga muvofiq yo‘nalishga tushuvi bilan unda inson omilining salmog‘i inson omilining oshuvi esa bu jamiyatda ma‘naviy qadriyatlarga e‘tibor kuchayishiga olib keladi. Ma‘naviy qadriyatlar ustivor bo‘lgan jamiyat chin taraqqiyot yo‘liga tushgan hisoblanadi. Mustaqillikka erishgan mamlakatimizda ma‘naviy qadriyatlarga e‘tiborning benihoya ortib borishi shu ma‘noda tabiiy holdir. Ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy munosabatlarning tub o‘zgarishlarga yuz tutishi jamiyat a‘zolarining ongi keskin evrilishlar bo‘lishiga olib keldi. Milliy tafakkurdagi yangilanish ma‘naviy qadriyatlarni shakllantirishga da‘vat etilgan muassasalar ishida ham tub burilishlar bo‘lishini taqozo etadi.

Boshlang‘ich ta‘limda boshqa ish turlari qatori badiiy asar tili ustida ishlashda reja tuzishga o‘rgatish ta‘limiy-tarbiyada alohida o‘ringa ega. Bola

kichik maktab yoshdanoq til hodisalariga sezgirlik bilan yondashadi, u o'rgan bilimlarini amaliy hayotga tatbiq qiladi.

Shunga erishish kerakki, epik asarlar ustidagi adabiy-estetik tahlil o'quvchining bilimini boyitsin, hissiyotiga cheksiz ta'sir ko'rsatsin, aqlini charxlab, nutqini o'stirsin. Buning uchun o'qituvchi adabiy-estetik tahlil bilan bog'liq vazifa va topshiriqlarni o'quvchilar tomonidan aniq va to'la tushunilishiga erishishi, beriladigan bilimlarning ular yoshiga mos bo'lishini hamisha diqqat markazida tutishi lozim. Bu esa uzluksiz adabiy ta'limning barcha bosqichlarida o'quvchilarning yosh xususiyatlari, bilim darajalari va qiziqishlarini inobatga olgan holda matn ustida ishlashga tayyorlab borishni taqozo etadi. Negaki adabiy ta'limning bosh vazifasi o'quvchilarning badiiy adabiyot namunalarini shunchaki o'qib qo'ya qolmasdan, balki ularning ruhiyatiga, sehrli olamiga chuqur kirish, his etish va anglashlariga erishishdan iboratdir.

Ma'lumki, barcha darslar ham ta'limiy xususiyatlarga ega. Shuning uchun har bir darsda ham o'quvchilarga o'rgatish, mustaqil ishlarini tashkil etish va ish natijalarini hisobga olib borish masalalariga e'tibor beriladi. O'quvchilarga asar mazmuni yuzasidan uning rejasini tuzish o'rgatilar ekan, ular nima uchun reja tuzish kerakligini bilsinlar. Masalan, o'quvchilar kichik hajmli asarni o'qiydilar. So'ng uning mazmunini gapiradilar. Keyin boshqa bir asar mazmunini aytishdan oldin uning rejasini tuzadilar. O'quvchilar rejalashtirib gapirilgani bilan rejasiz gapirishning farqini biladilar. Reja tuzishning zarurligi va uning ahamiyatini tushunadilar. O'qituvchining o'zi asarni o'qib reja tuzish yo'llarini ko'rsatadi. Rejaning har bir qismini tuzganda uni izohlab tushuntiradi. Keyin o'quvchilar bilan birgalikda ana shunday reja tuziladi. Reja tuzish natijalari bir necha marta takrorlanganidan keyin o'quvchilarning o'zlariga kichikroq asar uchun mustaqil reja tuzishlari aytiladi. O'quvchilar mustaqil reja tuzganlaridan keyin ulardan ayrimlariga o'qitiladi. Rejani qanday tuzganliklari, reja tuzishda nimalarga asoslanganliklari gapirtiriladi.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Ashrapova T., Odilov M. Ona tili metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1984.
2. Boshlang‘ich sinf davlat ta‘lim standartlari. Boshlang‘ich ta‘lim// 2005. – №5.
3. Boshlang‘ich ta‘lim o‘quv dasturi. – Toshkent, 2008.
4. Hasanboyeva O. Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996.
5. Homidiy H. va b. Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1967. – 300 b.
6. Karimov I. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi// Xalq so‘zi. 2011- yil 22- yanvar, №16 (5183)
7. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. – Toshkent: O‘zbekiston, 1999.
8. Karimov I.A. Olloh qalbizda, yuragimizda. – Toshkent: O‘zbekiston, 2000. – 14 b.
9. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. 8-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2000. – 528 b.
10. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. – Toshkent: O‘zbekiston. – 1995.
11. Karimov I.A. Yusak ma‘naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2008. – 176 b.
12. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O‘zbekiston, 2011. – 440 b.
13. Komilov N. Komil inson – millat kelajagi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2001.
14. Matchonov S., Shojalilov A. va boshq. O‘qish kitobi. 4-sinf uchun darslik. – Toshkent: Yangiyo‘l poligraph service, 2011. – 240 b.

15. Qosimova K. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1985. – 216 b.
16. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2009. – 352 b.
17. Sayidahmedov N. Noan'anaviy dars. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2003. – 98 b.
18. Umarova M., Hamroqulova X., Tojiboyeva R. O'qish kitobi. 3-sinf uchun darslik. – Toshkent: O'zbekiston, 2012. – 224 b.
19. Vazirlar Mahkamasining “Davlat tili” Kadrlar tayyorlash milliy dasturi haqidagi qonunlar. Xalq ta'limi, 1997. – №1.
20. Yusupov M. O'qish va yozuv darslari samaradorligini oshirish. – Toshkent: O'qituvchi, 1990.
21. Yusupova Sh. Noan'anaviy dars – davr talabi. – Andijon, 2002. 54 b.
22. Zunnunov A., Esonov J. Maktabda adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1985.
23. Zunnunov A., Hotamov N., Esonov J., Ibrohimov A. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.
24. O'zbek tilining asosiy imlo qoidalar. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.
25. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 tomli. – Toshkent: O'ME, 2006-2008.
26. G'afforova T., Nurullayeva Sh., Mirzahakimova Z. O'qish kitobi. 2-sinf. – Toshkent: Sharq, 2012. – 176 b.

Muqimiy nomidagi Qo'qon davlat pedagogika instituti 5141600 – “Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish” ta'lim yo'nalishi IV “A” guruh talabasi Mehmonova

Manzuraxonning “3-sinf o‘qish darsligidagi “Kuz manzarasi va mehnat” bo‘limini o‘tishda reja ustida ishlashga o‘rgatish” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi

H A Q I D A

Reja tuzish va u asosida matnni qayta hikoyalash o‘quvchilarning og‘zaki nutqini o‘stiruvchi eng maqbul ish turlaridan sanaladi. Buni to‘g‘ri anglab yetgan muallif reja tuzish va u orqali turli xil matnlarni qayta bayon etish borasida o‘zining amaliy ishlarini metodist olimlarimizning nazariy ko‘rsatmalari asosida qiziqarli tarzda yoritgan. Bitiruv malakaviy ish mavzusiga mos reja tuzilib, shu asosda ish bayon etilgan. Ishning bayon qismida fikrlar ketma-ketligiga rioya qilingan, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati ham maqsadga muvofiq tarzda keltirilib, ishda adabiyotlardan maqsadli foydalanilgan, ko‘chirmalar ishning dalili sifatida o‘rinli berilgan.

Ishning umumiy tavsifi – kirish qismida mavzuning dolzarbligi, mavzuning o‘rganilganlik darajasi, ishning maqsad va vazifalari, ishning nazariy, amaliy ahamiyati, ishning sinalishi to‘la ochilgan.

Ishning birinchi bobida boshlang‘ich sinflarda badiiy adabiyot o‘qitishning maqsad va vazifalari belgilanadi, badiiy matn ustida ishlashning o‘ziga xos xususiyatlari tavsiflanadi hamda boshlang‘ich ta‘limda reja tuzish ustida ishlash yo‘llari xususida so‘z boradi, fikrni dalillash uchun keng nazariy, amaliy ko‘chirmalar keltiriladi.

Ikkinchi bobda “Kuz manzarasi va mehnat” bo‘limidagi she‘riy asarlar, epik tur janrlari: hikoya, ertak va rivoyat hamda ilmiy-ommabop asarlar ustida ishlashda o‘quvchilarni reja tuzishga o‘rgatish metodikasi yuzasidan amaliy tavsiyalar beriladi.

Xulosa qismida “Kuz manzarasi va mehnat” bo‘limidagi asarlar matni ustida ishlash orqali o‘quvchilarning ma‘naviy-axloqiy fazilatlarini o‘stirish yuzasidan amaliy tavsiyalari beriladi.

Ishda keltirilgan fikrlar, ko'chirmalar o'z dalilini yetarlicha topa olgan. Amaliy ishlarni yoritishga keng joy ajratilgan. Biroq, ishni diqqat bilan kuzatganimizda, ayrim o'rinlarda imloviy, uslubiy va tinish belgilariga oid kamchiliklar uchraydi.

Ishdagi ayrim yetishmovchiliklar malakaviy ishning mazmuniga katta ta'sir qilmasligini, u oliy maktab BMI talablariga mosligini hisobga olib, himoyaga tavsiya etaman

Ish rahbari:

Z.Isaqov,

BTM kafedrası dotsenti.

20- aprel 2013- yil.

Muqimiy nomidagi Qo‘qon davlat pedagogika instituti 5141600 –
“Boshlang‘ich ta‘lim va sport-tarbiyaviy ish” ta‘lim yo‘nalishi IV “A” guruh
talabasi Mehmonova Manzuraxonning “3-sinf o‘qish darsligidagi
“Kuz manzarasi va mehnat” bo‘limini o‘tishda reja ustida ishlashga o‘rgatish”
mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

TASHQI TAQRIZ

Talaba bitiruv malakaviy ish mavzusiga mos reja tuzib, shu reja asosida ishni keng va atroflicha bayon eta olgan. Ish mazmunini bayon etishda fikrlar ketma-ketligiga qat’iy rioya qilingan. Har bir bo‘lim yuzasidan to‘g‘ri xulosalar chiqarilgan va umumiy xulosalar berilgan. Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati ham maqsadga muvofiq tarzda keltirilib, ishda adabiyotlardan o‘rinli foydalanilib, ko‘chirmalar manbai talablar darajasida rasmiylashtirilgan.

Ishning umumiy tavsifi qismida mavzuning dolzarbligi, mavzuning o‘rganilganlik darajasi, ishning maqsad va vazifalari, ishning nazariy, amaliy ahamiyati, ishning sinallishi yuzasidan keltirilgan ma’lumotlar qisqa va mazmunli yoritilgan, asoli dalillangan.

Ishning birinchi bobida boshlang‘ich sinf DTS asosida o‘qish darslarini tashkillashning maqsad va vazifalari, badiiy matn ustida ishlashning o‘ziga xos xususiyatlari, reja tuzish hamda u asosida hikoyalashning nazariy asoslari haqida so‘z boradi. Fikrni dalillash uchun keng nazariy va amaliy izohlar keltiriladi.

Ikkinchi bobda boshlang‘ich sinf 3- sinf o‘qish darsligidagi “Kuz manzarasi va mehnat” bo‘limidagi asarlarni o‘rgatish metodikasi, nasriy asarlarni o‘qitishning usullari, bo‘limidagi ilmiy-ommabop asarlarni o‘rgatishning o‘ziga xos tomonlari, she’riy asarlar ustida ishlash metodikasi to‘rt faslda ochiladi. Ishning bu qismida talaba o‘zining bitiruv malakaviy amaliyoti davridagi amaliy tajribalarini keng yoritishga ahamiyat bergan.

Xulosa qismda “Kuz manzarasi va mehnat” bo‘limidagi asarlar matni ustida ishlashda o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy qarashlarini boyitish yuzasidan olib borilgan ishlar tasnif etilgan.

Ishda keltirilgan fikrlar, ko‘chirmalar o‘z dalilini topa olgan. Nazariy fikrlar me’yorida keltirilib, amaliy ishlarni yoritishga keng joy ajratilgan. Biroq, ishda ayrim kamchiliklar ko‘zga tashlandi:

1. Birinchi bobning ayrim o‘rinlari, bizningcha, andek cho‘zilib ketgan.

2. Ishning ayrim betlarida imloviy, uslubiy va tinish belgilariga oid nuqsonlar uchraydi. BMIdagi bu yetishmovchiliklar ishning mazmuniga katta ta’sir qilmasligini hisobga olib, ishni himoyaga tavsiya etaman

Taqrizchi:


D.Zohidova,

O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti.


25-may 2013- yil.

O'QISH KITOBI

3




2-ilova




3-ilova



4-ilova



5-ilova



6-ilova

